O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Amaliy san`at va rangtasvir kafedrasi



CHIZMATASVIR

Fanidan

O'QUV USLUBIY MAJMUA

2023/2024 o’quv yili kunduzgi ta’lim shakli, 3-kurslari uchun

Bilim sohasi: 200 000 – San’at va gumanitar
**Ta`lim sohasi:** 210 000 - San`at
Ta`lim yo`nalishi: 60210800-Amaliy san`at: (badiiy kulolchilik)

NAMANGAN – 2023

Fanning o’quv uslubiy majmuasi O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2020 yil 18-avgustdagi 418 sonli buyrug’i bilan maqullangan fan dasturi asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

A.Amanullayev. NamDU, Amaliy san’at va rangtasvir kafedrasi p.f.n., dotsenti

Taqrizchi:

X.Rizayev. NamDU, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedarsi dotsenti

Fanning o’quv uslubiy majmuasi Amaliy san’at va rangtasvir kafedrasining 2023 yil 28-iyundagi 11- sonli yig’ilishidagi muhokamadan o’tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **p.f.n., dots. A.Amanullayev.**

Fanning o’quv uslubiy majmuasi San’atshunoslik fakul'tet kengashida muhokama qilingan va foydalanishga tavsiya qilingan. (2023 yil 29-iyundagi 11-sonli bayonnoma)

Fakultet dekani: **A.Sayfitdinov.**

Ushbu o’quv uslubiy majmua Namangan davlat universitetining 2023 yil 11-iyuldagi 12-sonli Kengashida ko‘rib chiqilgan va o‘quv jarayonida qo‘llanishiga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

I. O’QUV MATERIALLAR……..……..

1) Ma’ruza mashg’ulotlari.....

2) Amaliy, seminar mashg’ulotlari……

II. MUSTAQIL TA’LIM MASHG’ULOTLARI……

1) Kurs ishi bo’yicha tavsiyalar……

2) Mustaqil ish bo’yicha tavsiyalar……

III. GLOSSARIY……..

IV. ILOVALAR……..

1) Fan dasturi……..

2) Ishchi fan dastur……

3) Tarqatma materiallar……

4) Testlar……...

5) Baholash mezonlari……

6) Boshqa ma’lumotlar……

7) O’UM elektron variant……..

O'QUV MATERIALLAR

Amaliy mashg'ulot

1-Mavzu: Odam portretini (naturadan) ishlash.

Reja:

1. ***Mavzuga oid qoralamar yaratish.***
2. ***Portret ishlashning asosiy qonun - qoidalari.***
3. ***Nisbatlar va o'lchamlar bilan ishlash.***

Rassom badiiy ijodda o‘z mahoratini tinimsiz o‘stirishi, tasviriy vositalar bois asar badiiy ifodaliligini yarata bilish imkoniyatlarini kengaytirishi, atrof-muhitni, tabiat hodisalarini faolroq idrok etishi asosiy talablardan hisoblanadi. Badiiy asar yaratishga xos bo‘lgan xususiyatlarni ta’lim mobaynida egallashi talab etiladi. Voqelikni oddiy nusxa ko‘chirish bilan aks ettirib bo‘lmasligini tushunib olish muhimdir. Uni tasvirlash uchun avvalambor, hayotni toMaligicha rang-barangiigi va yaxlitligini anglagan holda uning tarkibini tashkil etuvchi makonning hajmiy shakli, yorugiigi, o‘ziga xosligi, xususiy tavsifi qismlarini tushunish, taffakur qilish, mazmunini talqin etish muhimdir. Ma’lumki, mashhur san’at ustalari: Vechellio Titsian, Rembrandt Van Reyn, Piter Paul Rubens, O‘zbekiston rassomlari - vatandoshlarmiz: Chingiz Axmarov, Rahim Ahmedov, Ro‘zi Choriyev, Nigmat Qo‘ziboyev, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov va boshqalar o‘z ijod yo‘llarini tabiatni haqqoniy samimiyat bilan tasvirlashdan boshlaganlar.

Badiiy ta’lim tizimida chizmatasvir fanining rassomlik san’atini egallashdagi ahamiyati beqiyos. Ushbu o‘quv-uslubiy ko‘rsatmalar o‘rta maxsus ta’limi - rassomlik o‘quv yurtlarida natyurmort chizish kursini o‘tab, san’at oliygohlarida tahsilni boshlagan talabalarga mo'ljallangandir. Pedagogning ustaxonada talabalar bilan doimiy ish olib borishi natijasida kuzatuv va tajribalar ko‘payib boradi. Ulami o‘z navbatida muayyan tartibga keltirib, rassomlik fakultetlarining pedagoglari va talabalari tajribasiga aylantirish kerak. Mazkur ko‘rsatmalar rassomlik institutining talabalariga natyurmort chizish tamoyillarini (yo‘nalishlarini) bayon qiladi. Natyurmort chizish jarayonida konstruktiv tasvir usullarini chuqur o‘zlashtirib, kompozitsion vazifalarini hal qiladi. Nazariyani amaliyotda qo‘llashni, tus orqali moddiylikni aks ettirishni o'rganadi. Natyurmort chizishda fonni tasvirlash asosiy

hal qiluvchi vazifadir. Bu haqda ulug‘ Rembrandt Van Reyn shunday degan edi: «Agar fon yozilishiga erishilsa, bu asar muvaffaqiyatining garovidir».

Jan-Batist Sharden, Frans Sneyders va Van Meer Delfskiy kabi mohir tasvir ustalari ham fonga juda katta ahamiyat berganlar, chunki to‘g‘ri tanlangan fon natyurmortdagi jismlarning yaxlit bir uyg‘unligi ifodasini aks ettirishga yordam beradi. Natyurmort chizishda talaba qat’iy ravishda o‘quv-uslubiy ko‘rsatmalarga va ketma-ketlikka rioya qilishi va xususiylikdan umumiylikka, oddiylikdan murakkablikka asoslangan tamoyillarga e’tibor berishi kerakki, aks holda naturadan passiv bir nusxa bo‘lib ko‘chirilib qolishi mumkin. Natyurmort atamasi XVIII asrda paydo bo‘lib, tasviriy san’atning muayyan janrini anglatadi. Portret yoki peyzaj janrlarida inson yoki tabiat tasvirlansa, natyurmortda insonning shaxsiy yoki uy buyumlari, o‘simlik va hayvonot olamining ba’zi bir unsurlari, amaliy san’at asarlari va shunga o'xshash juda ko‘p narsalarni aks ettirish mumkin. Natyurmort mustaqil janr sifatida XVI-XVIII asrlarda Flandriya va Gollandiyada yuzaga keldi. Badiiy ta’lim jarayoniarida natyurmort nafaqat rangtasvir, balki chizmatasviming ham ahamiyatli o‘quv topshiriqlaridan hisoblanadi.

Chizmatasvir asosiy akademik ta’limotlardan bo‘iib, talabalarni rassom sifatida tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Chizmatasvir madaniyatini va uslubiyatini mustahkam egallash, tasviriy san’atning barcha turlariga suv va havodek kerak.

Ushbu maqsadga uslubiy tamoyillarga jiddiy amal qilish jarayonida yetiladi. Uslubiy jihatdan to‘g‘ri yoiga qo‘yilgan chizmatasvir darslari taiabalarga chizmatasvir madaniyatini o‘zIashtirishga yordam beradi. Chizmatasvir madaniyatini o‘zlashtirish uslubiyati boy tarixga ega. Qadimdan ustoz musavviriar o‘zlarining bilimlarini qo'lyozmalarda qoldirishgan. Masalan, Uyg'onish davrining ulug‘ rassomi Leonardo da Vinchi o‘z qo‘lyozmaiarida chizmatasvirga mansub bilimlarini qoldirgan. Bu borada Sankt-Peterburgning I.E. Repin nomidagi R.X.A.sida ham samarali ishlar olib borilyapti. Keyingi yillarda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy Rassomlik va Dizayn institutida ham bu sohada samarali ishlar olib borilmoqda. Shuni aytish lozimki, taiabalarda chizmatasvir madaniyatini

rivojlantirishga bag‘ishlangan ushbu ko‘rsatmalarda tarixdagi boy meros – klassik uslubiyatlar asosida yondashilgan. Ilmiy texnik taraqqiyot ijodiy – badiiy tarbiyaning samaradorligini oshirishni talab qiladi, shuningdek, insoniyatning ijodiy faolligini oshirish juda muhimdir.

Badiiy ta’limda yoshlar tarbiyasida uning shakilanishiga asosiy ta’sir ko'rsatuvchi omil chizmatasvir darslaridir, shuning uchun ham tasviriy san’at maktablaridagi rasm o‘qituvchilari oldida avvalo, talabalami estetik dunyoqarashi, ulaming badiiy didi, ijodiy imkoniyatlari, fikrlash doirasi va tasvirlash madaniyatini shakllantirshdek muhim vazifa turadi. Faqatgina malakali ustoz-rassomlargina talabalami badiiy ijodda to‘g‘ri yo‘naltirishlari mumkin. Shu munosabat bilan P.P. Chistyakov “Jism shaklini to‘g‘ri tasvirlash hamma narsadan muhimroq va qimmatliroq» ekanligini ta’kidlaydi. Oliy badiiy ta’Iimda asosan inson tasviri o'quv jarayonining asosiy o‘quv topshiriqlaridan hisobianadi. Ushbu o’quv uslubiy majmua maxsus o‘rta maktabda o‘qigan, bosh shaklini chizishga bir oz bo’lsada o‘rgangan amaliy san’at bo‘limi talabalariga mo‘ljallangan. Portret chizishda, boshni tasvirlayotib, tala'ba shakl yaratish va tasvirlarning rang tuzilish qonuniyatlarini egallaydi, anatomiyadan oigan bilimlarni amalda qo‘llashga o‘rganadi, rang va shakl yordamida borliqni ifodalaydi. Tasviriy san’at sohasidagi ta’lim yo'nalishlaridagi yuqori bosqich bakalavrlik va magistratura talabalarida ijodiy psixoiogik portret yozishni o‘rgatish naqadar muhimligini hayotni o‘zi isbotlab turibdi. Rassomlar, haykaltaroshlar va boshqa tasviriy san’at ustalari o'zlari yashagan davrdagi o‘z zamondoshlarining qiyofalarini ifodalab, ulaming ichki va tashqi qiyofalarini o‘z asarlariga muhrlab ketishgan. Bunga son-sanoqsiz misollar keltirish mumkin. Masalan, eramizdan oldin qadimiy Misr shaharlaridan birida, Aleksandriya yaqinida joylashgan Fayum qishiog'idan topilgan portretlar shular jumlasidandir.

Inson portretini naturadan ustida muvaffaqiyatli ishlash uchun quyidagi bosqichiar asosida ish olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

a) qog‘oz yuzasida tasviriy, kompozitsion jihatdan to‘g‘ri joylashtirish, boshqacha aytganda, boshni shunday joylashtirish kerakki, u planshetga tortilgan

qog‘oz parchasining yuqorisida «osilib» qolmasin, shuningdek, «bosh» tasviri pastga ham tushib ketmasin. U qog‘ozda «erkin nafas olsin» va qog‘oz yuzasiga mutanosib bo’lishi kerak;

b) bosh shakli xususiyati, mutanosibligini to‘g‘ri berish;

v) bosh shakli qurilmasini to‘g‘ri qurish;



g) yorug’lik - soya va rang yordamida bosh hajmini to‘g‘ri aks ettirish;

d) bosh moddiyligini ifodalash;

e) soya va tuslarni umuxnlashtirish, o‘ta yorug'likdan to‘q tuslarga o'tish, eng issiq ranglardan eng sovuq ranglarga o‘tish.



Birinchi bosqichni ko‘rib chiqamiz, Bosh shakli yon tomondan yorug‘lik tushib turganda ma’noliroq ko'rinadi. Talabalarga kontrajurda chizish tavsiya etilmaydi, chunki ashyoning dastlabki rangini aniq sezish qiyin. Albatta, san’at tarixida kontrajurda yetuk asar yaratgan mahoratli rassomlar uchraydi, xususan, XX asr boshida yashagan rus rassomi Aleksey Isupov bu sohada muvaffaqiyat qozongan, lekin kontrajurda chizish o‘quv maqsadiga kirmaydi. Yoki talaba ijodiy topshiriqlarni mustaqil ravishda o‘z oldiga qo‘yib, hal etish chog‘ida mumkin bo‘ladi. Boshni qog'ozda kompozitsion jixatdan to‘g‘ri joylashga e ’tibor bilan qarash zarur. Bu ish tasviriy san’atning muhim janri bo'lgan portret ustida ishlashni yengillashtiradi, shuning uchun dastlabki uncha katta bo‘lmagan nusxalarda boshni joylashtirishni tavsiya etiladi. Xomaki kompozitsiya nusxalaridan biri ma’qulroq ekanligiga ishonch hosil qilgach, uni planshetga joylashtirishni boshlash mumkin.

Talabalar bosh tasvirini planshetga joylashtirishlari jarayonida ustoz yuqoridagilaming barchasini hisobga olishi lozim va ularga tasvirni to‘g‘ri joylashtirishga yordam berishi zarur. Bu topshiriqni bajarishda bosh suyagi, jag‘ yoylari, peshona suyaklari, chakaklari kabi anatomik tarkibiy qismlarni to‘g‘ri



joylash muhim shartlardan biridir. Yuzlari tirishgan, qat-qat, baq-baqali kishilarni bu topshiriqni bajarishga taklif etib bo‘imaydi.

«Bosh» topshirig‘i bajarilayotganda, yuz qismlarini bir-biriga moslash zarur, bunda portretga qo‘yilayotgan modellami burni uzun, peshonasi keng bo‘lib qolmasligi kerak. Soch rangi tasvirda katta ahamiyatga ega, bunga ham: alohida e’tibor beriladi.

Ikkinchi bosqich: Yoritish tasvirning ma’nodor bo‘lishida ahamiyati kattadir. Yon tomondan yorug‘lik berish maqsadga muvofiq hisoblanadi, jag' osti va umuman, burun, peshona, yuz suyaklari boshning yorug‘lik va soyalarini belgilashga imkon beradi. Qog‘oz yuzasida bilinar-bilinmas qalamda chiziqlar bilan, boshning umumiy kattaligini belgilab olish zarur. Bosh suyagining balandligi va eni, shuningdek, chuqurlik bo'yicha munosabatlari belgilab qo‘yiladi.

So‘ngra yuzning tusi va rangi belgilarini diqqat bilan o'rganish va tahlil qilish boshlanadi. Yuz qismlarini noto‘g‘ri tasvirlash yaramaydi, ya’ni ko‘zlarning burunning ustiga chizib qo‘yish, burunni esa og‘izni ustiga tushirib qo'yish noto‘g‘ri, albatta. Bunday xislat nusxaning xislati bo'lsa, saqlab qolinadi, (gap shundaki, keksa kishilaming tishlari tushib ketishi oqibatida burun og‘izning ustiga tushib turganday ko‘rinadi). O‘qish jarayonida talabalar rang dog‘larini, qalamda





tus berish ishiarini ongli ravishda egaliashlari lozim, Chizmatasvirda yorug‘lik, rang qonuniyatlarini yaxshi o'rganishlari talab etiladi. Asarning rang tusini to‘g‘ri tanlash - bu model boshida, yarim tusdan tortib eng quyuq rangli dog’largacha va o‘ta issiq ranglardan eng sovuq ranglargacha o‘tib boruvchi ranglar majmuasining yorugiik, soya va rang xususiyatlarini model boshida qanday bo‘lsa, shunday to‘g‘ri berish demakdir. Yoritish va rang berish qonuniyatlari ham anatomiya va perespektiva qonuniyatlari kabi aniqdir, bu qonuniyatlami yaxshi o‘rgangan talaba, ashyolar xususiyatini va hajmini erkin va ishonchli beradi. Fizik mutaxassislar rassomlar uchun quyidagi qonuniyatlarni belgilaganlar. Yuqorida “Natyurmort” mavzusida aytilgan fikrlami yana bir bor eslasak:

a) yorug‘lik manbayidan ikki karra ortiq uzoqlikda bo'lgan jism kuchsizroq yoritilgan bo‘ladi;

b) yorug‘lik manbayiga yaqin joylashgan jismlaming yorug'lik va soya qarama-qarshiliklari, undan uzoqda joylashgan jismlarga qaraganda keskinroq;

v) jismdan tushayotgan soya, jismning o‘zidagi soyaga qaraganda to‘qroqdir.

Uchinchi bosqich: Yorug‘lik va soya hamda rang soyalarida, yuksak cho'qqilarni egallagan Rembrandt Van Reyn tasvirda yorug‘lik-soya ahamiyatini yuksaklarga ko‘targan. Boshning rangini va tusini tasvirlashda yuz xususiyatini ta’kidlovchi chiziqlar yo‘nalishi aniq ko'rinadigan bo‘lishi lozim. Chizmatasvir texnikasida umumiy butun tasvir jarayonini hissiy idrok etish mantiqiy fikrlashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Natijada boshni umumiy tarzda idrok etishga qaytish zarur bo‘ladi. Asosiy xislatlami ajratib olib, ikkinchi darajali xislatlar yumshatiladi, ko‘rish markazi mutanosiblashtiriladi va boshlangan ish asta yakunlanadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. ***Chizmatasvirda fanida katta shakl tushunchasi nima?***
2. ***Analiz va sintez tushunchalarini tushuntirib bering?***
3. ***Tus nima? Buyumdagi tus munosabatlari to‘g‘risida so‘zlab bering?***
4. ***Qalam, ko‘mir, sangina bilan ishlash texnikasini izohlang.***
5. ***Odam boshi shakli tuzilishi rifghisida nimalami bilasiz?***
6. ***Profil chizigh nima?***
7. ***Odam boshi shakli bodaklarining nisbatlari to‘g‘risida tushuncha bering?***
8. ***Odam boshi shaklini uslubiy izchillikda ishlash tartibi qanday?***
9. ***Ko’zni kesib ohuvchi chiziq haqida mahumot bering. U qayerdan ohadi?***
10. ***Pedagogik rasmning oddiy rasmdan farqi nimada?***

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. B. Boymetov, S. Abdurasulov. Chizmatasvir. T., G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003.

2. B. Boymetov. Qalamtasvir. T., G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.

3. Boymetov B. Qalamtasvir o‘qitishning ilmiy asoslari. Metodik tavsiyalar. T., 1995-yil.

4. Boymetov B. Qalamtasvir asoslari. Pedagogika institutlari va universitetlari uchun o‘quv qo‘llanma. T., 2000-yil.

5. Boymetov B. Portret qalamtasviri. Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o‘quv qo‘1lanma. T., 2001-yi1

6. Tojiev B, Mahkamova S. “Qalamtasvir” (Dastlabki saboqlar). Metodik qo`llanma. Toshkent, 2013.

7. P.Thomas, A.Taylor Drawing, London-2011

8. B.Barber “Full course of the drawing”, Barselona-2014.

2-Mavzu: Portret odam boshi, yelkalari bilan ishlash.

1. ***Inson portretini yelkalari bilan anatomik taxlil asosida qurish.***
2. ***Qo'yilmani metodik ketma ketlikda bajarish.***

Inson portretining yelkalari bilan davomli rasmi ustida ishlashning butun majmuyi ham tasviriy san'atning ustuvor tamoyili - umumiylikdan xususiylikka va xususiylikdan yana umumiylikka, usul va uslubiga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, naturaning butun qismlarini tahlil qilish orqali - umumiy shakl obrazini ifoda etish qoidasiga rioya qilish kerak. Bu tamoyil rasm chizish bo'yicha chiqarilgan, hamma o'quv dasturlarida o'z aksini topgan va maxsus badiiy san'at maktabmaktablari va oliy o'quv yurtlarida ham asos hisoblanadi. U barcha o'quvchilarga (ularning davomli rasm chizish tayyorgarligi darajasidan qat'iy nazar) taklif etiladi va bajarish talab qilinadi. O'quvchilar uni osonroq egallab olishlari va uning mazmuni bilan yaxshiroq tushunib chiqishlari uchun tasvir ustida ishlashning murakkab majmuyi alohida-alohida bosqichlarga bo'linadi. Bundan tashqari, uslubiy izchillikka rioya qilgan holda tasvirlash o'quvchiga har bir bosqichni alohida tushunib yetishga va ular orasidagi o'zaro bog'liqlikni anglashga imkon yaratadi. Davomli tarzda rasm chizish jarayoni juda murakkab bo'lib, bunda yetarlicha ish tajribasiga ega bo'lmagan o'quvchi ko'pincha qiynalib qoladi. U eng avvalo, nimalarga e'tibor berish, o'z imkoniyatlaridan qanday qilib oqilona foydalanishni bilmaydi va o'z ishini lozim darajada tashkil qila olmaydi. Bunday o'quvchi, odatda, nimani ko'rsa, shundayligicha ko'chirib qo'ya qoladi. Tashqi shakl kohinishidan diqqat bilan nusxa ko'chiradi. Kerak-nokerak qismlarni ham ajratmay birdek tasvirlayveradi. Bo'laklarga berilib ketib, ular naturaga juda o'xshayapti, degan fikrda chizaveradi. Ko'pchilik o'quvchilar odam boshi rasmini chizar ekanlar, ishda uslubiy ketma-ketlikka rioya qilishmaydi, darhol murakkab vazifalarni bajarishga kirishadi va tez orada muvaffaqiyatsizlikka uchrashadi. Yaholanki, bosh rasmi ustida ishlashning uslubiy bosqichlari ham o'ziga xos xususiyatlarga egaki, ularni rasm chizuvchi, albatta, bilishi kerak.

O‘quv materialini yaxshi o‘zlashtirib olish uchun chizuvchi ushbu ish bosqichida muayyan darajada qaysi vazifani amalga oshirishi, tasvir qurishning qaysi jihatlariga alohida e’tiborni jalb qilishi kerakligini tasavvur etishi zarur. Bunday o‘quvchi naturani kuzatuv va tahlil jarayoni hamda uning rasmni konstmktiv chizishqurish jarayonida aniq tizimga rioya qilishi kerak bo’ladi. Rasm ishlashning uslubiy izchilligidagi barcha nozik taraflarni Inson portretining yelkalari bilan tasvirlashning rasm ustida ishlashning uslubiy ketma-ketligini bayon eta borib, odam bosh shakli qurilishining asosiy qonuniyatlari va tasvirlash usullarini (jumladan, ishning texnik usullarini) ohganishda davom etamiz.

Birinchi bosqich — qog‘oz yuzasida tasviming kompozitsion joylashishi, bosh shaklining umumiy xarakteri va proporsiyalarini belgilash. Bochqichli rasm chizishga kirishishdan oldin, naturani har tarafdan ko‘rib chiqish va mazkur boshning xarakterli xususiyatlarini belgilab olish, eng qiziqarli nuqtani tanlab olish va ushbu nuqtadan rasm qanday ko‘rinish kasb etishini tasavvur qilib olish zamr. Buning uchun turli nuqtalardan turib, bir qator kompozitsion qalamchizgilar bajarib, ulardan eng ma’qul joyini tanlash lozim. Avvalo, qalamni qog‘oz ustida yengilgina, bosmasdan harakatlantirib, modelning kompozitsion tuzilishini hal qila borib, boshning umumiy shaklini belgilab olamiz. Kompozitsion yechim ustida ishlab turib, bir yo‘la boshni sxematik tarzda belgilab olinadi. Bu perspektiv qonunlami to‘g‘ri hal qihshga yordam beradi. Tasvimi qog‘oz ustida joylashtirib bo‘lingandan so‘ng bosh shakli xarakterini, boshning burilishi (holati)ni, uning bo‘yin va yelka kengligi bilan boshlanishini aniqlab olamiz.

I-bosqich

Geometrik shakllar, jumladan, kubni tasvirlash kabi, bosh rasmini chizishda ham uning, katta shaklining konstmktiv asosini ochishdan boshlash kerak. Boshning old qismini yon qismlardan chiziqlar bilan

belgilab olinganidan so‘ng, unga profil chizig‘i qo‘yiladi va naturaga qarab, uning yo‘nalishi tekshirib olinadi. Shundan so‘ng, old qismidagi bumn, lab, ko‘zlar joylashgan o‘rinlarini aniqlaymiz. Profil chizig‘i yordamida alohida qismlar, yaxlitlik hamda umumiy boshning umumiy shakli ko‘rinishi proporsional nisbatliklarni ham aniqlab olish mumkin. Ushbu bosqichda eng asosiysi boshning umumiy ko‘rinishi va uning xarakterini to‘g‘ri belgilab olishdir. Bosh bo‘laklari (bumn, ko‘zlar, og‘iz) faqat belgilab qo‘yiladi: ularga tus berishga shoshilish kerak emas, bularni keyinroq, hamma narsalar o‘z joyida belgilab qo‘yilgandan keyin bajariladi. Tasvirga o‘zgartirishlar kiritish mumkin bo‘lishi uchun rasmni qog‘ozga qalamni yengilgina yurgizib tushiramiz va chiziqli-konstmktiv rasmga o‘tamiz.

Ikkinchi bosqich — perspektiva va anatomik tuzilishni hisobga olgan holda bosh shaklini chiziqli-konstruktiv tasvirlash. Umuman bosh va uning bo‘laklarini chiziqli-konstruktiv tasvirlashga o‘tayotganda, hajm qanday tashkil topishini tasvirda ko‘rsatishga harakat qilish kerak. Har bir shakl yuzasi yoritilganligiga ko‘ra, turlicha tuslarga ega va shu yuzalarga yengil cliiziqlar berib, butun bosh shakli, uning bo‘laklarini ham to‘g‘ri va ishonchli chiqarishga harakat qilish lozim. Bosh shaklini cliizishda shaklning konstruktiv asosini aniqlash vaqtida, bir yo‘la bosh suyagi suyaklari bilan asoslangan shakl xarakteriga ham aniqlik kiritish kerak. Shaklni bunday talilil qilish o‘quvcliiga boslming xarakterini to‘g‘ri ochib berishga imkon beradi. Shaklni yuzada oddiydan murakkabga prinsipi bo‘yicha tasvirlashda, bosh rasmini cliizishning butun jarayonidan katta shaklni tasvirlashda detalli tus berishgacha bo‘lgan jarayon, umuman boslmi va alohida detallami (bumn, lab, ko‘zlami) tahlil qilishda ham so‘zsiz bajarilishi kerak.

II-bosqich

Ko‘z, quloq, bumn, lablar shakliga aniqlik kirita borib, doimo ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuzatib turish lozim. Har bir bo‘lak bir-biri bilan uyg‘unlashishi maqsadga muvofiq va xalaqit bermagandagina yaxshidir. Ushbu holatda bunday o‘zaro bog‘liqlik qosh usti yoylari, ko‘z kosasi, yuqori va pastki qovoqlarni birlashturuvchi yordamchi chiziqlar bilan ko‘rsatilgan.

O‘xshashlikni ocliib berish uchun rassom ko‘zlaming joylasliish xarakterini diqqat bilan kuzatislii zamr. Ko‘zlar shunday joylasliislii kerakki, unda ichki (ko‘z yoshi qobig‘i) va tashqi burchaklar gorizontal chiziqda bo‘ladi. Bu holni slavyan irqiga xos bo‘lganlarda kuzatish mumkin. Bizning mazkur topsliirig‘imizda, ushbu naturadagi ayolning ko‘z nigohi biroz pastga qaratilgan. Odam boshini to‘g‘ri va ishonchli tasvirlash quloq suprasining to‘g‘ri joylashganligiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Quloq rasmini chizayotganda, quloq suprasini pastki jag‘ suyagi (yumshoq joyi) unchalik yopib qo‘ymasligini yodda tutish kerak. Yonoq suyagi o‘simtasi doimo quloq suprasi o‘rtasida joylashgan bo‘ladi. Buni, biz awal aytib o‘tganimizdek, har kim o‘zida tekshirib ko‘rishi mumkin. Yonoq suyagi o‘simtasi ushlab ko‘rilganda, barmoq quloq suprasining o‘rtasiga kirib boradi, yonoq suyagini paypaslayotgan barmoq esa, uning bukrisiga borib taqalishiga ishonch hosil qilinadi. Quloq ensa-ga yoki yonoqda chizibb qolmasligiga doim e’tibor berish kerak. Quloq suprasining joylashishini to‘g‘ri belgilash uchun quloq suprasining ustki jag‘ suyagi shoxchasiga parallel bo’lishligini kuzatib borish lozim. Shakl xarakteri va quloq suprasining joylashuviga alohida e’tibor qarating. xar bir odamning quloqlari o‘ziga xos tuzihshga ega.

Quloq shakli qurilishining qonuniyatlarini bilgan rassom har bir detal xususiyatini osongina ilg‘ab olishi mumkin. Shuningdek, bosh shaklining bo’laklari burun, lab va ko‘zlar harakatiga ham diqqat bilan e’tibor berish lozim. Bosh bo‘laklarining xarakteri boshning o‘z xususiyatiga bog‘liq. Masalan, bu juda cho‘ziq bosh yoki bu juda dumaloq yuz deyishganda, unga qismlar ham taalluqli bo‘ladi. Burunlar ham turli-tuman tuzilishga ega bo’lishi mumkin.

Ba’zilaming burni haddan tashqari qirg‘iy, uzun va osilgan, boshqalamiki esa, aksincha, juda kalta, kekkaygan, qalin, qulupnay sifat, puchuq yoki peshana chizig‘idan haddan tashqari turtib chiqqan bo‘ladi. Shuningdek, ba’zilarda ko‘zlar kirtaygan, ichiga cho‘kib ketgan yoki chaqchaygan bo‘ladi. Ba’zi kishilar ko‘zlarini juda qisqa ochadilar va pastki qovoqlar yuqori qovoq tushgandagidan ham kattaroq bo‘ladi; boshqalar ko‘zlarini baqraytirganda, ko‘z qorachig‘i yaqqol ko‘rinadi. Ayrimlaming qoshlari ko‘z ostidan ancha ko‘tarilgan, boshqalamiki ko‘z ustiga tushib turgan, kimdadir ular ingichka bo‘lsa, boshqasinikida baroqqosh bo‘ladi. Ba’zi odamlarning lablari cho‘chchaygan, boshqalarniki ingichka, osilgan; ba’zilarda ustki lab paski labga nisbatan ko‘tarilgan (yoki aksincha), ko‘pincha, qalinroq bo‘ladi; bir kishida bumn ostidagi labi uzun bo‘lsa, boshqasida kalta bo‘ladi va hokazo. Shuningdek, ba’zilarning dahani yo‘g‘on, keng, katta bo‘lsa, boshqalarda u juda kichik va uchli bo‘ladi; ba’zan u orqaga, tomoqqa tortilgan yoki aksincha, tomoqdan ancha turtib chiqqan bo’lishi mumkin va ba’zan ular uzun, ba’zan esa, kalta bo‘ladiki, yuqorida aytib o‘tilganidek, ular ko‘ndalang chiziqlar bilan belgilanadi. Bunday diqqat bilan kuzatish rasm chizuvchiga asarda naturachining individual xususiyatlari va portret o‘xshashlikni ochilib berish imkonini beradi. Yonoq va chaynash muskullari yaxshi rivojlangan, yonoqlari esa, kuchli bo‘rtmaga ega ekanligini ko‘ramiz.

Uni tasvirlash orqali, obraz xarakteristikasini kuchaytiramiz. Keng peshana muskullari o‘ziga xos shaklga ega.

Uchinchi bosqich — tusberib shaidni detallashtirish. So‘nggi bosqichga o‘tib, shakllarni detallashtirishdan oldin vazifaning bosqichlari to‘g‘ri bajarilganini yana bir bor tekshirib chiqish darkor. Shaklning umumiy ko‘rinishini yo‘qotmaslik uchun tasvirga sekin-astalik bilan tus beriladi. Dastlab yengilgina tarzda asosiy soyalami belgilab chiqiladi. Bu esa, bosh shaklini yaxlit ko‘rish, aniqliklar kiritish imkonini yaratadi. Shundan so‘ng yana umumiy shakldan kelib chiqqan holda yuz bo‘laklariga o‘tish mumkin. Aloliida bo‘laklarga aniqlik kirita borib, shakl tuzilishi qonuniyatlariga diqqat bilan e’tibor beriladi.

Masalan; ko‘zlami chizayotganda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ko‘z soqqasining old bo‘rtmasini muguz parda tashkil etadiki, uning orqasida markazdagi ko‘z qorachig‘i bilan rangdor qoplama turadi. Ko‘pchilik talabalar ko‘z qorachig‘ini o‘rtasida qora doirasi bo‘lgan yassi disk sifatida tasvirlaydilar. Bu noto‘g‘ri. Markazdagi ko‘z qorachig‘i rangdor yassi qoplama emas, balki qabariq shaklga egadir. Ko‘z soqqasini qovoqlar yopib turadi.

Ko‘z bir tomonga qaraganda, muguz qabarig‘i yuqori qovoqlari ham o‘sha tomonga, ya’ni odam qayoqqa qarasa, o‘sha yoqqa buriladi. Shuning uchun yuqori qovoqlar chizilayotganda, uning tashqi va ichki tomonlariga diqqat bilan e’tibor berish lozim. Ushbu misolda naturachining nigohi to‘g‘riga va biroz pastga qaragan. Ko‘z shaklini detalli chizib chiqishda, yorug‘likning taqsimlanish qonuniyatlarini ham yodda saqlash lozim. Oddiy sharoitlarda yorug‘lik yuqoridan tushadi va yuqori qovoq qalinligi soyada, pastkisi esa yorug‘likda qoladi. Talabalar, odatda, yuqori qovoqning pastki yuzasi va pastki qovoq qalinligini bir xilda tuslashadi, ba’zan esa, qovoqlar qalinligi faqat chiziqlar bilan cheklanib qolib, umuman, ko‘rsatilmaydi. Pastki qovoqni juda ehtiyotkorlik bilan, qalamni qog‘ozga tegar-tegmas qilib chizish kerak, ayniqsa, portret o‘xshashligiga erishayotgan paytda. Qoshlar rasmini chizishda jiddiy e’tibor zamr. Qoshlar xilmaxil bo‘ladi, ular keng, tor, qalamqosh, baraqqosh, tekis, pastga qarab osilgan, chimirilgan, bir-biriga tutashib ketgan bo‘lishi va portret xarakteristikasining aniq chiqishi qoshlarning ham to‘g‘ri yoritilishigabog‘liqbo‘ladi. Ushbu vazifada naturachining qoshlari o‘rtacha quyuqlikda va nozikdir.

III-bosqich

Odamning tirik boshini tasvirlash jarayonida ko‘pchilik o‘quvchilar, shaklni detalli ishlash, rasmning badiiy ifodali chiqishida uning detallarini umumlashtira olishiga bog‘liq. Shaklga detalli ishlov berish rasmning ifodali chiqishini oshiradi. Ishning ushbu bosqichda bosh shakli va uning detallariga aniqlik kirita borib, bir yo‘la tus berish masalasini hal qilish uchun ham asos tayyorlash kerak. Akademik rasmda, nafaqat, shaklning to‘g‘ri tasvirlanganligi, balki uning ifodali chiqqanligi ham qadrlanadi. Rasmdagi ifodali-lik tus berish vazifasini qanchalik to‘g‘ri hal etilganligiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi.

Predmetning alohida yuzalari yoritilganligining o‘zgarishi ulaming yorug’lik manbayiga nisbatan kenglikdagi holatiga bog‘liq bo‘ladi. Tus yorug‘lik manbayining xarakteri *(**tabiiy** - quyosh, oy nuri; **sun’iy** - elektr lampochkasi, sham)* va yorug‘lik tushayotgan predmet rangi bilan o‘lchanadi. Yorug‘lik (nur) jism yuzasiga tushar ekan, u tus kuchini belgilaydi. Yuzalaming yorug‘lik manbayiga nisbatan turganiga qarab tus xarakteristikasi ham o‘zgaradi. Yoshlar ko‘pchilik hollarda, ayniqsa, tirik odam boshini chizishdek murakkab vazifani bajarishda ko‘p chalkashadi. Ular bosh shakliga tus berayotganida yorug‘-soya gradatsiyasini, binobarin, hajmning yoritganlik darajasini ilg‘ab ololmaydi. Masalan; ular qora sochlami tasvirlayotganlarida, bu sochlami darhol bir tekis, bir xil rangga qoplab, qayerda soya, qayerda yarim soya va qayerda yorug‘ bo‘lishligini ko‘rsatishmaydi. Vaholanki, qora sochlarga tushgan yorug‘lik xuddi, aytaylik, buyum uchiga tushgan yorug‘lik kabi bo‘lishi mumkin.

Shaklga tus berishda xuddi shakl yuzasini silayotgandek qalam uchini yurgizish kerak. Bir shakldan ikkinchi shaklga o‘tishda esa, biroz, xuddi yo‘nayotgandek bir shaklni ikkinchisidan ajratayotgandek qalamni ataylab bosib-bosib ishlating. Masalan, chuqurlikka kirib borayotgan burun teshiklarining yuzasini yengilgina qoraytirib va yonoqning lab burishmalari yuzasiga o‘tishda burun teshiklari shaklini yonoqdan «sanchib-sanchib» ajratish kerak.. Juda ko‘p hollarda naturani uzoq vaqt davom etadigan jarayonda tasvirlash natijasida talabada his etish (qabul qilish) jo‘shqinligi susayadi, u naturadan passiv ravishda nusxa ko‘chirib, o‘zi chizayotgan rasmini «bo‘yab tashlashga» o‘tadi. Ushbu

kamchihkning oldini olish uchun ma’lum bir bo‘lak ustida uzoq ishlash kerak emas, chunki qabul qilish (his etish) jo‘shqinligi yo‘qola borib, tasvir o‘quvchining hissiyotiga salbiy ta’sir eta boshlaydi. Undan ko‘ra, boshqa, yon-atrofdagi qismni chizishga o‘tish kerak. Avval qilingan ishga yana qaytilganda chala qolgan joylami ko‘rish oson bo‘ladi. Vazifani tugatish bosqichi eng qiyin va davomiydir. Bunda o‘quvchi model shakliga tus berishda bir yo‘la uning materiallilik tomonini ham ochib tuslay olsa, rasmning ifodaliligi yanada ortadi. Masalan, agar u naturachi ko‘zining shakli va xarakterini to‘g‘ri tasvirlasa-yu, ko‘zlarigajozibabermasa, uning chizgan rasmi yetarli darajada ifodali chiqmaydi; u ko‘zlarni tasvirlar ekan, kiprik va teri, shuningdek, namlangan ko‘zlar jozibasi kabi omillarni to‘g‘ri ochib bersa, portretning ifodaliligi yanada ortadi. Ko‘zlar jozibasi deganda, shu narsani tushunish kerakki, ko‘z soqqasi doimo ko‘z yoshlari bilan namlangan bo‘ladi. Agar rassom ulami tasvirda ochib bera olmasa, u odam ko‘zining ishonchh va ifodali chiqishiga erisha olmaydi. Shaklga tus berib va materiallikni ocha borib, sekin-asta soch, qoshlar tusi kuchaytiriladi. Rasmda materiallikni ocha borib, shaklning plastik xarakteristikasini aniqroq ifodalashga harakat qilish lozim. Oxirgi bosqichda qilingan ishga umumiy yakun yasaladi. Shu yerning o’zida tasvirning holatini tez-tez tekshirib borish lozim. Qilingan ishga yakun yasash bosh nisbatlari, shakl xarakteri, hajm ifodasining ishonchliligi va tus berish nisbatlarining to‘g‘ri ekanligini tekshirishdan boshlanadi. Eng avvalo, rasmning uyg’unlashuvini tekshirish kerak. Shaklni detallash jarayonida siz rasmni surib yuborgan bodishingiz, detallar o’zaro bogdanishini yo’qotgan, shaklga tus berish jarayonida anatomik tuzilishga putur yetgan bodishi mumkin; ehtimol biror joyda unga yangidan chizgi berish, kontur bo’yicha esa, ifodani bohltimvchi chiziq tortish kerak bo‘lar. Shuningdek, har bir detal shakli xarakterini tekshirib chiqish zamr, chunki ular, nafaqat, bosh shaklining umumiy stmkturasini to‘g‘ri ifodalash uchun, balki odamning obrazli xarakteristikasini bohltirib kohsatish uchun kerak.

Shundan so’ng tus berish vazifasining to’g’ri hal etilganligini tekshirish darkor. Bu ohiuda naturada eng to‘q va eng yorug’ joylami belgilab chiqish, ulami yarim soyaga taqqoslagan holda tasvimi umumiy yaxlitlikka keltirish lozim. Detallarga ishlov berilish darajasiga alohida eiibor qilish zarur. Tasviriy san’at qonun-qoidalariga koria, uzoqdagi detallarga kamroq, yaqindagilarga esa, ko’proq tus berilishi lozim.

Qilingan ishlarga yakun yasalayotganda, reflekslar yomgriik bilan bir xil tusda toriib qolmasligi, qattiq qoraytirib yuborilgan soyalar «darcha» hosil qilmasligi, uzoqdagi yorug’lik va soya kontrastlari oldinga «chiqib» qolmasligini tekshirib olish zarur. Bunday xatoliklarni tezroq ilg’ab olish uchun tasvirga ko’proq va uzoqroqdan turib qarash kerak. Tirik bosh rasmi ustida ishlashning metodik ketma-ketligi haqidagi masalaga yakun yasab, shu narsani yodda saqlash kerakki, ishning har bir bosqichiga yetarli darajada vaqt ajratilishi lozim. Tasvir qurishning metodik ketma-ketligini o’zlashtirib olish - boshlovchi rassomga ishonch bilan, uzluksiz, har bir bosqichni alohilda ravishda qanday hal etilishini bilgan holda ish-lash imkoniyatini beradi. Rasm ustida ishlashning amaliy tajribasini egallagan yosh rassom yakuniy natijani oldindan ko‘ra bilish ko’nikmasiga ega bo’la boshlaydi.

Lekin oldindan ko‘ra bilish ko’nikmasiga ba’zilar o’ylaydigandek, har kim o‘z holicha emas, balki pedagog yordamida, butun tasvir qurish jarayonini bosqichma-bosqich o’zlashtirish natijasidagina ega boriadi hamda mustaqil ravishda ko’plab amaliy mashqlar va usta rassomlaming ijodiy ishlarini tahlil etib, nusxalar olish orqali mumkin. Mashhur usta rassom V.Y. Savinskiyning «Keksa portreti»ni misol qilib korisatishimiz mumkin.

V.Y. Savinskiy

NAZORAT SAVOLLARI

1. ***Odam qomatini ishlashda muskul va suyaklarning axamiyati qanday?***
2. ***Chizmatasvirda naturadan yalong`och qomat ishlashdan maqsad nima?***
3. ***Odam qomatida skelet nima?***
4. ***Xomaki chizmatasvirning axamiyati nimada?***
5. ***Chizmatasvirda xomaki ish ishlashdan maqsad nimada?***
6. ***Xomaki chizmatasvir qanday xolatlarda amalga oshiriladi?***
7. ***Xomaki chizmatasvir ishlashda ni9maga axamiyat berish lozim?***
8. ***Chizma tasvirda xomaki chizmatasvir qanday ashyolarda bajariladi?***
9. ***Yalang`och qomat proporsiyasi xolato qanday o`zgaradi?***

Foydalangan adaboyotlar:

1. B. Boymetov, Qalamtasvir. Darslik “Musiqa” nashriyoti -2006.

2. Халилов Р, Рисунок, Издательство «Навруз» Т., -2013.

3. B.Tojiyev, Maxkamova “Qalamtasvir” TDPU-2015 yil

4. B.Tojiyev, X.Sultonov “Qalamtasvir” TDPU-2009

5. P.Thomas, A.Taylor, Drawing, London-2011.

6. B.Boymetov «Qalamtasvir» Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o’quv qo’llanma. Toshkent, “Iqtisod-Moliya”-2010.

7. B.Barber “Full course of the drawing”, Barselona-2014.

8. N.Tolipov,Sh.Dilshodbekova. “Tasviriy san’atdan izohli lug’at” TDPU-2014.

9. Х.Хариссон, “Энцклопедия. Техник рисунка” Москва-2005.

10. М.Кирцер, “Рисунок и живопись” Москва-2003.

11. Н.Ли , Основы учебного академического рисунка. Москва-2003

3-Mavzu: Tirik odam yarim qomati, qo'llari bilan chiziqli, konstruktiv ko'rinishini ishlash.

Reja:

1. ***Inson qomatining anatomik tuzilishi.***
2. ***Mavzuga mos qoralamalar yaratish.***
3. ***Shaklning konstruktiv asosi***

Tasviriy san'atda inson qiyofasini tasvirlash qadimdan rassomlami o'ziga jalb qilib kelgan. Tabiatda inson eng mukammal va serqirra obyekt hisoblanadi. Shuning uchun ham barcha badhy o'quv dargohlarida inson qiyofasi, uning portretini tasvirlashga ko'p vaqt ajratiladi. Tirik modelni (yalang'och model tasvirini) chizish qiyin vazifa, uni bajarish uchun rassomdan doimiy mashg'ulotlar davomida egallangan malaka talab etiladi. Tirik modeldan rasm chizishning mushkul tomoni shundaki, bunda model qimirlamasdan, bir xil holatda tura olmaydi, ya'ni chizish davomida u bir necha bor o'z holatini o'zgartiradi. Boshqa tomondan tirik modelda kuzatiladigan suyaklar va mushaklarning yaqqol ajralib turishi, ulaming tuzilishi, nisbati, vazifasi va harakat xarakterini oydinlashtirishga imkon yaratadi. Bundan tashqari, model o'z holatini o'zgartirganida, rassom tasawuri va xotirasiga asoslanib, chizishni davom ettirishi kerak. Bunday ish uslubi juda muhim bo'lib, qalamlar va eskizlar chizishda uning ahamiyati kattadir. Tirik inson modeli (yalang'och inson qiyofasijni chizish mashg'ulotlarini tashkil etish va undagi rasm chizish ketma-ketligi gipsdan ishlangan model tasvirini ishlash jarayoni bilan deyarli bir xil. Model taglik ustida taxminan 40 sm balandlikda erkin holatda, rassomga qarab, bir oyog'iga tiralib - ushbu holatda chap oyog'iga tirahb turishi kerak. Model holati Gudonning «Ekorshe»sini eslatadi. Bukilgan chap qo'l tana qismining orqa tarafida bo'lib, o'ng qo'l erkin holatda pastga osilib turibdi. Bu yerda chap oyoq og'irlik markazidir. O'ng oyoq esa, chap



oyoqqa nisbatan biroz oldimoqda joylashgan va erkin holatda turibdi. Modelga yuqori-yon tarafdan kuchsiz yorugMik tushishi kerak. Anatomik tuzilish bo‘yicha to‘liq tasawur hosil qilish uchun, modeldan uzoqroq masofada odam skeleti yoki Gudonning «Ekorshe»sini joylashtirish tavsiya etiladi. Bundan asosiy maqsad, oldingi vazifada olingan bilim va malakalami tirik odam Rasmini chizishda taqqoslab, nisbatlar hamda muskullar tizimini yanada aniqroq tasawur etishdan iboratdir.

O‘quvchilar bir-birlaridan eng kamida model bo‘yiga bir barobar keladigan masofada, naturadan esa, eng kamida qomatning uch barobari darajasidagi masofada joylashishlari kerak. Bunday masofa ularga modelni boshdan oyog‘igacha perspektiv o‘zgarishlarda ko‘rish imkonini beradi. Rassom tasviming joylashish o‘mi va o’chamlarini - rasm kompozitsiyasini belgilaydi. Model pozasi va harakatidan kelib chiqqan holda modelning umumiy holati va model massasi qalam bilan yengil chizib chiqiladi. Turgan holatdagi model rasmini chizishni dastlab old tarafdan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday holatda rasm chizish tamoyillarini ochib berish ancha oson kechadi. Oyoq osti va ular orasidagi masofa turgan modelning tayanch maydoni hisoblanadi. Og‘irlik markazidan o‘tuvchi tik chiziq tayanch maydonidan o‘tganda ham model muvozanat holatida tik turgan, deb hisoblanadi. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, odam oyoqlari orasini kengroq ochsa, tayanch maydoni kattalashadi va mustahkam muvozanatga ega bo‘ladi. Bir oyoqqa tiralib turganda, model holati og‘irlik markazi bo‘ylab tushirilgan tik tayanch oyoqning tovon qismidan yoki uning yonidan o‘tadi. Yalang‘och odam tasviri chizilganda model holati ana shunday

bo‘lishi lozim. Rasm chizishning dastlabki bosqichida harakat holati va asosiy nisbatlami ko‘rsatgan holda butun modelni umumiy ko‘rinishini yordamchi chiziqlarda tasvirlash muhimdir. Tasviriy san’at qonun va qoidalaridan bizga malumki, tabiatdagi barcha shakllar geometric sirtlarga o‘xshash shakllar tarkibiga asoslanadi. Shuning uchun ham ushbu holatga misol tariqasida Dyurcr tomonidan geometric shakllarga asoslanib ishlangan rasmni keltirishimiz mumkin. Bu yerda model harakati yaqqol ko‘zga tashlanadi.



Yelka kamari tosga nisbatan deyarh to‘g‘ri burchak bo‘yicha burilgan, bosh orqaga qayrilgan. Yanada oydinlik kiritish maqsadida A. Dyurer ko‘krak qafasini geometrik shakl asosida, perspektiv o‘zgarishlami ko‘rsatib, sxematik tarzda tasvirlagan. Og‘irlik markazidan podium yuzasidagi kesishish nuqtasigacha tik chiziq chiziladi. Ushbu nuqtaga asoslanib, ikki tovonning o‘zaro joylashuvini izlash kerak. Har bir oyoq turgan joy tovon uzunligi darajasida belgilanadi. Katta oshiq (sonning tos bilan birlashgan qismi)dan pastga, oyoq joylashadigan joy



markazi tomon tana tiralgan oyoqning umumiy yo‘nalishini ko‘rsatuvchi to‘g‘ri chiziq chiziladi; ikkinchi sonning katta oshig‘idan erkin turgan oyoqning awal tizzagacha bo‘lgan qismi, keyin esa, tovon markazigacha bo‘lgan qismi chiziq bilan belgilanadi. Og‘irlik markazidan o‘tuvchi va rasmda belgilangan boshning yuqori qismigacha davom etuvchi tik chiziqning umumiy uzunligi model balandligini tashkil etadi.



Tos erkin holatda turganida, og‘irlik markazidan tushirilgan vertikal yarim chuqurchasidan o‘tadi. Hosil bo‘lgan umumiy tik chiziqqa tananing quyidagi alohida qismlari chegaralarini ko‘rsatuvchi belgilar chiziladi: oyoq, ko‘krak va bosh o‘lchamini ko‘rsatuvchi belgilar. Bu yerda boshning o‘rta chizig‘i mo‘ljal qilib olinadi va bosh holati oval shakl bilan belgilanadi; shu usul bilan boshning burilish darajasi va harakati aniqlanadi. Ishning bu bosqichida rasmning obrazli xarakteriga ta’sir qiluvchi modelning yuqori, o‘rta, pastki qismi nisbatlariga to‘xtalib, pedagog rassomlarga baland, o‘rta va past bo‘yli odamlarda boshning butun tana uzunligiga nisbati qanday bo‘lishini, shuningdek, erkak, ayol va yosh bola qomatlari nisbatlari o‘rtasidagi farqlami tushuntirib berishi kerak.

Bosh balandligi va yarim chuqurchasining joylashuvi butun model balandligiga nisbatan belgilangandan so‘ng, yengil chiziqlar bilan o‘mrov suyaklari yo‘nalishi chiziladi. So‘ngra modelning yarim chuqurchasidan to‘sh suyagining xanjarsimon o‘sig‘i, undan kindik va rasmdagi asosiy o‘zgarmas nuqtalardan biri bo‘lgan tos suyagining boshlang‘ich qismi - yonbosh suyak tomon cho‘zilgan shartli o‘rta chiziq aniqlanadi. Rasmga ko‘krak so‘rg‘ichlaridan o‘tuvchi gorizontal chiziq chiziladi; keyin tos suyaklarining qirralaridan chiziq

o‘tkaziladi va shu yo‘l bilan tosning gorizontal chiziqqa nisbatan qiyalik darajasi aniqlanadi. Ikki oyoqqa tiralib turgan model holatida tos gorizontal holatda bo‘ladi. Tananing barcha og‘irligini bir oyoqqa o‘tkazilganida, tos og‘irlik tushmagan oyoq tomonga egiladi. Tosning yuqori qismi chizig‘i yonbosh suyakning ko‘rinib turgan qirralariga asoslanib belgilanadi.

Keyin ikki son suyagi boshchalari o‘rtasidagi chiziq belgilanadi. Tana og‘irligini ko‘rsatib turgan sonning tos bilan birlashgan boshchasi aniq ko‘rinib turadi; ikkinchi oyoqning son boshchasining joylashish o‘rni o‘zgarganligi tufayli, uning o‘rnida chuqurcha hosil bo‘ladi. Ikki son boshchalari o‘rtasidagi chiziqqa parallel ravishda, rasmda shtrixlab qo‘yilgan tosning yuqori qismidan o‘tuvchi, chiziq belgilanadi.

Tos chizig‘iga parallel ravishda ikki oyoqning tizza qopqoqlaridan o‘tuvchi chiziq chiziladi (son boshchasi va to ‘piq o‘rtasida). Bunday usulda chizilgan belgilar tik chiziq bo‘yicha model nisbatlarini aniqlashga yordam beradi. Modelning asosiy qismlari kengligi - tosdan tovongacha va tosdan boshning yuqori chegarasigacha bo‘lgan qismi shtrixlar yordamida oydinlashtiriladi. Ikki oyoqning yon tomonlari va tos, tors, yelka, qo‘1, bo‘yin va bosh ham shtrixlar bilan chizib chiqiladi. Ishning keyingi bosqichida o‘chirg‘ich bilan yordamchi chiziqlar va tasvirlangan model ichidagi barcha belgilangan yordamchi chiziqlar o‘chiriladi, shundan so‘ng tasvirning oTchami va chegaralari natura bilan yana bir bor solishtiriladi.

Buning uchun dastlab tasvir hajmini ko‘rsatib beruvchi asosiy soya va tus munosabatlari rasmda aks ettirilib, natijada nisbatlami to‘g‘rilash va konturlarga shtrix bilan aniqhk kiritish imkoni paydo boTadi. Bunda modelning tos va boshdan boshlab, oyoq va qo’lgacha bo’lgan qismlari ustida ish olib boriladi. Oyoq-qoTning - yelka, tirsak, tizzalaming bukilgan joylariga shtrixlar yordamida yorug‘-soya yordamida tus beriladi. Qo‘1 kaftlari va tovonlar birgalikda ishlanadi, model tasviri shtrixlar bilan ishlanadi va shakl hajmi yorug‘lik-soya munosabatlari asosida ko‘rsatiladi. o‘quv mashqni bajarish davomida qalamni botirib chizish mumkin emas, chunki xatolarni tuzatishda rasm qorayib ketadi va tasvir yaxhthgi buziladi.

4-Mavzu: Mavzuli qo’yilma. Libosli ayol qomatini ishlash.

Reja:

1. ***Xomaki chizma va formatni aniqlash.***
2. ***Aniqlash va kata yoriq va soyalarni tonda shtrixlash.***
3. ***Detallariga ishlov berish va yaxlidlashga olib kelish.***

Tasviriy san'atning barcha turlarida va janrlarida kompozitsiya masalasini hal etish etakchi o‟rinlarda turadi, desak yanglishmaymiz. Buniig uchun esa har bir san'at tursh a muvofiq tarzda kompozitsiya asoslarini qo’llay bilish ksrak. Shu o’rinda kompozitsiya umumqoidalari puxta o’rganilishi zarur. Ular akademik qalamgasvirlar yaratish, o’rganish, mashq qilish jarayonining ham ajralmas qismidir. Ma'lumki, inson qomagini chizish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda albatta akademik rasm ishlash amallari qo’llaniladi. U esa oddiydan murakkabga o’tib boish orqali yuzaga chiqariladi. Odam tasviri talabalar, uni endi chizishni o’rganayotganlar uchun ancha murakkab ishdir. Bu sohaniig nazariy qismini o’qib. o‟rganish mashqlar uchui chiziladigan vazifalar sifatini oshirishnish omilidir. Chunki nafaqat yillar, balki asrlar davomida akademik rasm chizish sirlari ochilib, tadqiq etib, takomillashtirilib kelinmoqda. Shundan ma'lumki o’ziga xos, inkor etib bo’lmaydigan tamoyillar, qonun-qoidalar vujudga kelgan. Ma`lumki, konstruktiv yechim ko`pchilik kompozitsiyalarning muhim qismi sifatida foydalaniladi. Portret akdemik chizmatasvirni ishlash murakkab vazifalardan xisoblanadi. Chunki konstruktiv fikirlash chismatasvir olamiga, odam tanasini juda nozik tekisliklarini ko`rishni va fikrlashn o`rgatadi. Uni tasvirlash, o`xshatib ifodalash ancha qiyindir. Odam qo`l oyog’i har xil ko`rinishlarini turli vaziyatlarda aks ettirish inson tanasi tuzilishi, anatomiyasi, o`ziga xos shakl-shamoyilini o`rganishni, plastik yechimini topishni taqozo etadi. Shuning uchun chizilayotgan odam keksami, yoshmi gavdasining konstruktiv tuzilishini avvalo qalamtasvirini chizib, o`rganilishi kerak. Buning uchun mayda xomaki qalam chizmalar bajarish,tahlil qilib o`rganish lozim. SHundan so`ng eng maqbul, chiroyli, ko`zga yaxshi tashlanadigan joydan turib tasvirni qog’ozga tushirish boshlanadi. Unda gavdaning satxda joylashishi kompozitsiya tomonlari puxta o`ylab chiziladi. Katta shaklni ko`ribilishlik va tekisliga tushirish alohida e`tiborga

qaratiladi, mutanosiblik barcha narsada o`z aksini topishi kerak. Ular esa gavdaning har bir bo`lagi, soya yorug'ligida namoyon etiladi.

Odam qo`l oyog'i qurish jarayonida, tanadagi konstruktiv tekisliklarga aloxida etibor bilan chiziladi, ayrim kerakli joylarini buktirib ishlanadi. Portretni soya va yorug' joylarini yaxlit qilib tus jihatidan ishlab chiqishdan boshlanib, hajmni ko`rsatishga yordam beruvchi unsurlar-yarimsoya va aks shu`lalarni belgilash bilan davom ettiriladi. Ayniqsa, gavdaning qorin va bel qismlarini konstruktiv tuzulishlariga juda kata etibor beriladi. Ularni «nyuans»lar yordamida ishlash mumkin. Bunda tus o`zgarishlarining salgina farqi ham hisobga olinadi. Odam qo`l oyyog'i murakkab keng ma`no tashuvchi, voqeani aks ettiruvchi bo`lishi bilan ajralib turadi. Respublikamizda ijod qilgan va qilayotgan rassomlar o`z ijodlarida odam gavdasini uning go`zalligini xaqqoniy qilib aks ettirganlar. Ulardan Ch.Axmarov, R.Ahmedov, N.Qo`ziboev, R.CHoriev, A.Ikromjonov,

M.Nuriddinov, S.Rahmetov, va boshqa ko`plarni sanab o`tishimiz mumkin. Akademik yo`nalishdagi chizmatasvir o`z qonun- qoidalari bor. Ular o`quv-mashq ishi ekanligi, qat`iy me`zonlar doirasida, metodik izchillik asosida bajarilishini bilamiz. Ammo uning barcha talablariga muvofiq ish olib borish ancha murakkabdir. Buning uchun talaba ko`p mashq qilishi hamda nazariy bilimlar bilan qurollanishi kerak. Chizmatasvir mashq vazifa sifatida ishlanayotgan bo`lsada, unga alohida talabchanlik bilan yondoshish zarur. Chizilayotgan kishining o`xshatish eng muhim ishdir.

Yuqori kursda vazifani bajarishda tasvirlanuvchini o'xshashligi va ruhiy xarakteristikasini ko'rsatish talablari qo'yiladi. Bu vazifani amalga oshirishda naturachini tanlanganligiga bog'liq bo'ladi. Naturani tanlashda uning, o'ziga xosligi, xarakterstikasi, yuz detallarining aniqligi va qo'llarining plastikasi qiziqarli bo'lishi zarur. Postanovkani qo'yishda yorug'lik tushishini shunday qo'yish kerakki, uning o'ziga xos tomonlarini; qomat holati, qo'l va bosh shakplari aniq ajratilib ko'rsatilishi maqsadga muvofiq. Postanovkani qo'yishda naturachining tabiiy holatini aniqlab. uning o'zi odatdagi holatidan foydalanib ko'yishga harakat qilish kerak. Qiziqarli va yaxshi qo'yilgan postanovka talabalar tomonidan ixlos

tizimi aniq ko’rinib tursin, talaba undan ko’proq bilim olein, muskul qurilmasi hamda kalla shaklini turli xolatlarda va jaglar biron narsa chaynayotgandagi vaziyati, suyaklar birikuvi kabilarni yaxshi o’rgansin. Bunda boshni old, yon, yarim burilishi kabi turli holatlarini tasvirlash tavsiya etiladi. rangtasvirlar miqdori har bir alohida talaba uchun zarur bo’lgan darajada belgilanadi. Talaba navbatma - navbat kalla suyagi detallarini yaxshi o’zlashtirib, boshqa detallarni o’rganishga asta sekin o’taboshlaydi. Ba’zida boshning anatomik tartibini o’rganishga ko’proq vaqt talab qilinadi, shunga ko’ra talaba ko’plab chizgilarni bajarishi zarur bo’ladi. Talaba chizayotgan chizmatasviri hajmi boshning tabiiy xajmidan oshmasligi (boshning jonli andozasi hajmi nazarda tutiladi) kerak. Har bir chizmatasvirga taxminan ikki – to’rt soat ajratiladi. Rangtasvirda asosan naturani qalam bilan chiziladi, lekin pero, sangina, ko’mir kabi boshqa ashyolardan ham foydalanish mumkin. Ko’rgan narsalarini xotiraga olish kobiliyatini rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida naturadan chizmatasvirni tugatgach aynan o’sha andozani mukobil harakatlar bilan tasvirlanadigan xotiradan qisqa muddatli tasvirlarni bajarish tavsiya etiladi. Xotiradan rangtasvirlar tasvir jarayoniga ko’ra naturadan bajariladigan tasvirlar bilan almashinib turishi mumkin. Xotiradan chizmatasvirlar bosh anatomiyasini o’rganishdagi tasviriy xotirani mustaxkamlash imkonini beradi. Bunday chizmatasvirlar talaba nazariy bilimlarini va amaliy ko’njshalarini to’la egallagani anik bo’lguncha takrorlanishi L03»1M. Anatomik boshni turli xolatlarda tasvirlash bilan bir katorda uning alohida qismlari bo’lgan ko’z, burun, og’iz, quloq kabilardan qisqa tasvirlar bajarish foydali. Bu talabaga har bir qismning, har bir mushakning alohida kurilmasini chukur va e’tibor bilan o’zlashtirishiga, ularning shakl kurilmasi va boglikligini tushunishga yordam beradi. Boshning yuqorida ta’kidlangan kismlarining har birini taovirlashni majburiy qilib qo’yish shart emas, bu holat o’rganilayotgan ma’lumotni qanchalik tez o’zlashtirib olish va tayyorgarlik darajaga bogliq. Inson boshi anatomik tasvirini bajarish chogida bosh suyagidan foydalanish maqsadga muvofiq bo’lsa, unda talaba boshning mushak qoplamasi va bosh suyagi orasidagi bevosita aloqani tushunib yaxshiroq eslab qoladi. Bosh va ayrim kismlarining tuzilish

xususiyatlarini ongli ravishda va mustahkam egallab olinishi uzok muddatli chizmatas virlarda ham, xotiraviy chizmatasvirlarda ham aksini topmog'i talab etiladi. Inson anatomiyasini nazariy va amaliy jihatdan egallashni asosan plastik anatomiya kursi mashg'ulotlarida keng o'rganiladi. Anatomik chizmatasvir topshiriqlarini faqat boshning asosiy mushaklarini statik holatda o'rganish bilangina chegaralanib bo'lmaydi. Barcha mushaklarni va ularning uzaro bnrikuvi shakl va hajmi, turli harakat va qisqarishlardagi o'zgarishini chuqur anglash lozim. ayniqsa imo - ishora bilan bog'liq mushaklar va ularning inson ichki holatiga bog'liq tomonlariga e'tibor karatish muhimdir. Murakkab vazifalarni bajarmay turib, haqiqiy rassom, psixologik portret yoki tematik surat ustasi bo'lib yetishishi qiyin. Odam boshi murakkab rakurs da. «Rakurs holatni tasvirlashni o'rganishdan oldin bajariladigan boshni yon tomondan va rakurs ko'rinishlarda chizish» topshiriqlariga «kalla suyagini turli ko'rinishlarda tasvirlash» topshirigi muqaddima bo'lishi kerak. Bu inson bosh tasviriga o'tishda nihoyatda zarur. «Kalla suyagini turli ko'rinishlarda» tasvirlash bosh suyagining tuzilish xususiyatlari va uning kismlarining o'zaro alokalarini o'rganishni nazarda tutadi. Ushbu topshiriq kalla suyagining turli ko'rinishlarini o'rganishni taqozo etadi. Uning ro'paradan, to'rtdan uch qism ko'rinishi va yon taraf holati chiziladi.

Bu turli burilish va rakurslar xamda boshning ayrim qismlarining tabiatda jism va qomatning alokasidan vujudga keluvchi fazoda yuz beradigan qoidalariga bo'ysinuvchi jarayoni o'zaro mutanosiblikni belgilash kabilarga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi. Rakurs - tabiatda jism va qomatning murakkab holati. Bu holatda qaralayotgan ob'ektning insonga old qismi kattaroq, uzoklashayotgan kismi kichiklashib boradi. Kalla suyagi chizmatasvirini bajarishga kamroq vakt ajrati ladi, xususan, dastlabki ikkita chizmaga olti - sakkiz soat, uchinchisiga un ikki - un olti soat vakt ajratiladi, negaki u avvalgi ikkita chizmaning ustida ishlash jarayonida olingan bilimlarning amaldagi natijasini namoyon etish imkoniyatini tugdiradi. Ko'p yillik pedagogik tajribadan kurinadiki, vaktniig bunday taksimlaiishi talabani portret chizishdek qiyin topshiriqni bajarishga asta - sekin kirishuviga yaxshi debocha bo'ladi. Har uchala suratni bir o'lchamda chizish

tavsiya etiladi, bu boshning turli holatlaridagi tuzilish xususiyatlari va shakli, o'ziga xosliklarini tezroq tushunib olishga yo'l ochadi. Rangtasvirni shoshmay, shaklning fazodagi (ayniqsa, rakursdagi) holatini yaxshilab kuzatib, keyin ish boshlash kerak. Boshning umumiy ko'rinishi, uning kattaligi va mutanosibligini belgilab olgandan keyin, o'rta (simmetriya) chiziqni anik mo'ljallab olish zarur. Qosh, ko'z, burun va og'zni ifodalovchi chiziqlar o'tkaziladi, ularning orasidagi masofa belgilanadi, negaki bosh yon tomonga burilganda va rakursda bu chiziklar orasidagi masofa o'zgaradi.

Bularning barchasini chizmaga kiritib va mutanosiblikni yaxshilab tekshirgandan keyin boshning ayrim qismlarini aniqroq ifodalashga kirishish mumkin. Bunda ularning shaklini aniq berilishiga va umumiylik xususiyatini nazardan qochirmaslikka harakat qilish zarur bo'ladi. Boshning rakurs holatlarida shakl biron qismi yuzasining qisqarishi va boshkasining kattalashishi qanday ruy berishini doimo fikran tasavvur etib borish keraq masalan, yuqoriga ko'tarilgan boshda vertikal joylashgan peshona, burun, yonoqlarning qisqarishini kuzatsak aksincha, gorizontal joylashgan ko'z doiralari, burunning pastki yuzasi, lablar, jag' va boshqalarning kattalashishini ko'ramiz. Bosh pastga egilganda bu qismlarning holati shunga ko'ra o'zgaradi. Suratni qog'oz yuzasida joylashtirishdan boshlab tugallashgacha jism yoki qomat tus ustidagi ishlar davom etar ekan, uni fakat shaklni aniqlab to'zib olish uchun zarur bo'lgan darajadagina olib boriladi. Ko'proq vaqt ajratiladigan uchinchi bosqichda tus jihatdan bajariladigan ishlar shaklni yakuniy ifodalashga xizmat qiladi va haqqoniy tasvir hosil qilinadi. Simmetriya (o'rta chiziq) - rassomchilikda inson yuzi tasvirida profil chizig'i deb ham ataladi. Kalla markazidan o'tuvchi chiziqqa doimiy ko'z tashlab tekshiradigan yordamchi vosita sifatida inson harakterini aniqlashda ahamiyati beqiyos. O'quv topshiriqlari, barcha bosqichlarda vaqti - vaqti bilan kalla suyagiga murojaat kilib turish, boshning ma'lum vaziyatidagi holatidan lahzalik chizmalar va homaki nusxalar ishlab borish chizmatasvir mahoratini oshiradi. Tasvirlanayotgan inson boshini ko'proq tushunish uchun kalla suyagi bilan doimo chog'ishtirib borish bosh tasvirini bajarishda yaxshi natijalar beradi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. ***Odam boshini yelkasi bilan ishlashning qanday talablari bor?***
2. ***Qalamchizgi va xomaki rasm nima? Ular to‘g‘risida madumot bering?***
3. ***Odamning harakat holatini izohlang?***
4. ***Tayanch nuqtasi va muvozanat to‘g‘risida so`zlab bering?***
5. ***Inson qomatini tasvirlashda analiz va sintez yodi bilan tasvir bajarish, deganda nimani tushunasiz?***
6. ***Pedagogik rasmning oddiy rasmdan farqi nimada?***
7. ***Buyumda yorugdikning taqsimlanish qonuniyatlarini bayon eting?***
8. ***Odam qomatining tuzilishini sxema asosida chizib ko`rsating?***
9. ***Qalamchizgi va xomaki rasm nima? Ular to‘g‘risida madumot bering?***
10. ***Odamning harakat holatini izohlang?***
11. ***Tayanch nuqtasi va muvozanat to‘g‘risida so`zlab bering?***

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Boymetov. Qalamtasvir 1-qism. T. 2007.
2. B.Tojiboyev. N.Isoxo`jayeva Qalamtasvir, Rangtasvir va kopozirsiya asoslari. T.2011.
3. N.A.Dmitriyev. Kratkaya istoriya iskusstv. M.: 1985 g.
4. Gruppa avtorov.Vse obshaya istoriya iskusstv. M.:1956 g
5. Abdirasilov.S, Tolipov N. “Dastgohli Rangtasvir” Iqtisod moliya. T., 2008.
6. Abdirasilov.S, Tolipov N. “Rangtasvir” Bilim. O`MKHTM T., 2005
7. B.Tojiev, N. Isahojayeva. “Qalamtasvir, rangtasvir va kompozisiya” “SHARQ” NMAK. T., 2011
8. Abdirasilov.S., Tolipov N. N.Oripova. “Rangtasvir” TDPU rizografida 2003
9. G.V.Beda. Jivopis’. Moskva. "Prosvextsenie". 1986. (26-39 betlar)
10. Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir. T., 2006.
11. Nurtoev.O’ “Rangshunoslik asoslari” o’quv qo’llanma “Ilm ziyo” T., 2008
12. Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (1-qism). T.: 2002.
13. Abduraqmonov G.M. Rangtasvir va kompozitsiya. – Toshkent, 1995.
14. Nabiev M. «Rangshunoslik». Toshkent; O’qituvchi, 1995.

6-Mavzu: Libosli ayol qomati interyerda (o’tirgan xolatda).

Reja:

1. ***Plastikaviy anatomiya haqida umumiy ma'lumotlar.***
2. ***Ayollar gavdasining fizikaviy qiyofasi.***
3. ***Gavda tuzilishidagi asimmetriya***.

Odamning plastikaviy anatomiyasi gavda tashqi qiyofasi hamda uni belgilaydigan ichki tuzilish xususiyatlarini o‘rganadi. Har bir tikuvchilik sanoati xodimlari odam gavdasini to‘g‘ri va tushunib chizishlari uchun o'lcham va proporsiyalarning qisqacha tavsiflarini bilishlari lozim.

Anaiomiya-kishi organizmi, ayrim organlar va sistemalarning tuzilishi hamda shakllari haqidagi fan. Anatomiya morfologiyaning hir qismi hisohlanadi.

Morfologiya-kishi organizmining shaxsiy o‘zgaruvchanligi, gavda o'lchamlari va proporsiyalarini yoshga qarab o‘zgarishi hamda organizm ayrim qismlarining o‘zgaruvchanligi qonuniyatlari haqidagi fan bo‘lib, inson tanasi tuzilishi haqidagi taMimot. Morfologiya antropologiya fanining bir qismi hisoblanadi.

Plasyik anatomiya-kishi gavdasining tashqi shakli-qadqomatni o'rganadi. Gavda, odatda, tana, bosh, qo‘llar va oyoqlarga bo‘lib o‘rganiladi. Odam skeleti kalla suyaklari, qo‘l va oyoq suyaklaridan tashkil topgan. Odamning umurtqa pog'onasi 5 simon (egri) bo‘ladi: umurtqa pog'onasi, bo‘yin va bel qismlarida egrilik chizig‘i oldinga, ko‘krak va bel qismlarida esa orqaga yo‘nalgan. Umurtqa pog‘onasining egrilik darajasi odamning qaddi-qomatini belgilaydi. Qo‘l skeleti deganda, yelka kamari (kuraklar va o‘mrovlar) hamda qo’llarning erkin xarakatlanadigan suyaklari tushuniladi. Bunday suyaklar jumlasiga yelka, tirsak, bilak hamda kaft suyaklari kiradi. Yelka suyagi tik vaziyatda joylashgan yoki biroz orqaga, yo oldinga og'gan bo‘lishi mumkin. Yelka suyagi bilan tirsak hamda bilak suyaklari birlashgan joyda burchak hosil bo‘ladi, u yengning shakliga ta’sir etadi.

Oyoqlar skeleti tos kamari va oyoqiarning erkin xarakatlanadigan suyaklaridan tashkil topgan. Oyoqlarning bunday suyaklari jumlasiga yonbosh (son) suyagi, katta va kichik boldir suyaklari hamda tovon suyaklari kiradi

Oyoqlarning shakli yonbosh o‘qi bilan boldir o‘qining birbiriga nisbatan qanday joylashganligiga qarab normal, A-simon, O-simon, ya'ni xomutsimon va sirkulsimon boMishi mumkin. Tananing ho‘yin asosidan to yelka bo‘g‘imigacha bukilgan qismi yelka deb ataladi. Yelka normal, keng va tor, shuningdek, qiyalik darajasiga qarab, baland hamda past bo‘lishi mumkin. Qorinning ham uchta asosiy shakli mavjud: tekis, ichiga tortilgan va dumaloq-do‘ppayib chiqib turgan qorin. Qorinning shakli jinsga va oriq-semizlikka bogMiq bo‘ladi. Gavdani belgilab beruvchi asosiy morfologik belgilar umumiy belgilami, mutanosiblikni, gavda tuzilishi va qaddi-qomatni o‘z ichiga oladi. Umumiy belgilar deganda tananing uzunligi, ko'krak aylanasi hamda vazn kabi belgilar tushuniladi. Har bir odamning ko'krak qafasi shakli har xil bo‘1adi. U qisqa va keng, uzun va ensiz boMishi mumkin. Gavda harakatlanganda (burilganda, engashganda) ko'krak qafasining shakli ham o‘zgaradi. Ayollar ko‘krak qafasi erkaklarnikidan ensiz va kalta bo‘ladi. Tos kamari butun gavdani tutib turadi. Ayollar tos suyagi erkaklarnikidan pastroq va kengroq bo‘ladi, ko‘proq oldinga og‘ib turadi. Tos suyaklari dumg'aza suyagi bilan birga yopiq suyak halqasini tashkil etadi. Ensiz tos suyagi qomatni xushbichim koTsatadi, keng tos suyagi esa uni qo'pollashtiradi. Gavda tik turganda son suyagining pastki tomoni ustki tomoniga qaraganda birbiriga yaqinroq turadi. Bu, ayniqsa, ayollarda yaqqol seziladi. Son suyagi ayollarda to'gri burchak ostida bo'ladi. Kiyimni konstruksiyalashda proporsiyaning ahamiyati katta. Proporsiya deganda, tananing turli qismlari o‘lchamining bo‘yi (rost)ga nisbati tushuniladi: bu nisbat foizlar bilan ifodalanadi. Tana proporsiyalari yoshga va jinsga qarab o‘zgaradi. Ayollarning yelkasi ensizroq, sonlari yo‘g‘onroq, tanasi uzunroq, qo‘l-oyoqlari erkaklarnikidan kaltaroq bo’ladi. Qiz bolalarning

yoshi ulg'aygan sari son va boldirlari yo‘g‘onlashadi, ko‘kraklari duma-loqlashib, bellari xipchalashadi. 14-16 yoshlik o'smirning gavdasi mutanosiblik jihatdan katta yoshdagi kishi gavdasiga yaqinlashadi, lekin ularning gavdasi biroz nomutanosib ko’rinadi. Ularning tanasi kalta, qo‘1 va oyoqlari hamda bo'yni uzun bo‘ladi, lekin gavda bichimi to‘g‘ri, gavdasi katta yoshdagi kishilar gavdasiga qaraganda xushbichimroq va yengilroq tuyuladi. Vosh kattalashgan sari gavda qismiarining barcha o'lchamlari o‘zgaradi. Butun o‘sish davrida kalla ikki marta, qo'llar to‘rt marta, bo‘yin yetti marta kattalashadi. Gavda yoki uning qismlari asimmetriyasini hatto qomati kelishgan kishilarda ham kuzatish mumkin. Asimmetriya gavdaning o‘ng va chap tomonlari tuzilishidagi ayrim farqlarda namoyon bo‘ladi. O‘ng qo‘li chap qo‘lga qaraganda uzunroq, chap oyoq o‘ng oyoqqa qaraganda uzunroq va aksincha, bir yelka ikkinchisiga qaraganda balandroq bo’lishi mumkin. Asimmetriya yuz qismlarda ko'proq kuzatiladi.

Kishi gavdasiga yon tomondan qaraganda gavda qiyofasi asimmetrik bo‘ladi va u old yoki orqadan qaraganda ko‘rinadigan qiyofadan farq qiladi. Yon tomondan qaraganda ko'rinadigan qiyofa konturining qavariqligi va botiqligi ayqash yotganligini ko‘rish mumkin. Butunlay normal tuzilgan gavdali kishilarni topish qiyin. Mutanosib tuzilgan gavdali kishilar hamda me'yordan biroz ortiq gavdali kishilarni uchratish mumkin. Kiyim loyihalashda o‘lchov olish gavda tuzilishini aniqlashga, uning me'yordan og‘gan-og‘maganligini bilishga yordam beradi. Mutanosib gavda deganda nimani tushunish kerak va unda qanday o‘sishlar mavjud? Mutanosib gavdali odamning o‘lchamlari va qaddi-qomati to‘g‘ri o‘lchamli va bichimli bo'ladi. Ko‘kragi botiq, dumbasi tekis va qorni biroz qappaygan, bukchaygan gavdali kishilar; keng ko'krakli va orqasi tor; yelkalari chiqqan; bir yelkasi



ikkinchi yelkasidan kalta; bir biqini ikkinchisidan farq qiladigan va dumaloq (ko'krakning aylanasi son aylanasiga teng va bel aylanasi biroz kichikroq) kishilar boladi.



Gavdaning tashqi qiyofasi tuzilishida muskullarning ahamiyati katta, muskullarning zo‘riqishi va kuch darajasi qomatdagi tafovutni hamda muskul relefining ifodaliligini belgilaydi. Odam gavdasidagi muskullarning umumiy soni 300 dan ortadi. Turli-tuman alomatlariga qarab har qaysi muskulga alohida-alohida nom berilgan: vazifasiga qarab bukuvchi, yozuvchi, yaqinlashtiruvchi, uzoqlantiruvchi; shakliga qarab deltasimon, trapetsiyasimon; joylashishiga qarab o‘mrov osti, suyak usti; boshlanishi va yopilishi joyiga qarab yelka, hilak, o'mrov-yelka; kallaklari soniga qarab ikki kallakli, to'rt kallakli; tuzihshiga qarab yarim pay muskullar. Ko'krak muskullari. Gavdaning oldi tomondagi eng muhim muskul katta ko‘krak muskuli. Ayollarda bu muskullar ustida ko'krak bezlari yotadi. Qovurg‘alar orasidagi katta muskullar qovurg‘alar orasidagi oraliqni to'ldirib turadi va ularning

nafas olishdagi harakatini amalga oshiradj. Qorin muskullari. Qorindagi to‘g‘ri muskul vertikal yo'nalishida yotadi. U gavdani bukadi, ko'krak qafasini pasaytiradi, nafas chiqarishda qatnashadi. Orqa muskullar. Bunday muskullar guruhida trapetsiyasimon muskul ayniqsa muhim. U bosh suyagining orqa tomonidan boshlanadi. Yelka kamari muskullari yelka bo‘g‘imining atrofidagi deltasimon muskul gavda plastinkasida katta ahamiyatga ega, u yelkani yumaloq qilib turadi. Oldi tomondan yo‘g‘on ko‘krak muskuli bilan chegaralanadi. Bu muskullar qo'lni yonga cho'zishga yordam beradi. Qo'lning oldi tomonida ikki kallakli muskul yotadi, u qo‘!ni tirsak bo‘g‘inida bukadi, bilakni tashqariga buradi va yelka muskuli bilan birgalikda bilakni egishda qatnashadi. Bilak muskullari guruhi qo‘l barmog'i va panjalarini bukuvchi hamda yozuvchi vazifasini o‘taydi. Qo‘l panjalari muskullari kaft sirtida yotib, ikki joyda-bosh barmoq va jimjiloq tagida bo‘rtiq hosil qiladi. Tos kamari muskullari. Plastinka nuqtayi nazaridan yo‘g‘on va o‘rta dumba muskullari tos kamaridagi eng muhim muskul hisoblanadi. Tik holatda muskul qisqarganda oyoq tos-son bo‘g'imida keriladi va yoziladi hamda tana old tomon to‘g‘rilanadi. O‘rta dumba muskuli qisqarganda oyoq yonga keriladi. Boldir muskullari. Bilak muskullari kabi boldir muskullari ham tovonga tomon torayib boradigan uzun paylarga ega. Tovon muskullari orqa va oyoq kafti guruhlariga bo‘linadi. Orqa guruh muskullari oyoq barmoqlarini to‘g‘rilaydi. Ular barmoqlarni to‘g‘rilaydigan kalta muskullardir, oyoq kafti guruhidagi muskullar esa barmoqlarini bukadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, ushbu qo‘llanmada kiyim modellari rasmini chizishda gavdaning tashqi shakllari plastinkasi ta'sir ko‘rsatadigan muskul va suyaklar haqidagina so‘z yuritilgan. Qo'llanmada tavsiya

qilinadigan kiyimli gavdaning rasmini solish usullari yalang'och gavda rasmini asliga qarab chizish tajribasi bo‘lmagan o‘quvchilar uchun mo'ljallangan. Erkak va ayol gavdasining fizikaviy qiyofasi bir-biridan farq qiladi. Bu tafovutlar skeletdayoq o‘z ifodasini topgan. Odatda erkaklarning bo‘yi balandroq, ya’ni baland bo'yli erkaklarning bo‘yi nasldan yuqori, o’ta bo‘yliklarniki esa —165 srq, ayollarning bo'yi 8-12 sm pastroq bo'ladi. Erkaklarda suyak chiziqlari va muskul relefi aniqroq, yelkalari sonlaridan keng, gavdasi esa tik va biroz orqaga og‘ganroq bo‘ladi. Ko‘krak aylanasining antropologiyasi juda yaxshi oTganilgan; erkaklarda bu o‘lchov orqada -ko'krak suyaklari ostidan, oldinda esa ko'krak bezlari uchi atrofidagi pastki segment bo‘yicha o‘lchab aniqlanadi.

Yoshi ulg'aygan sari ko'krak aylanasining o'lchami orta boradi, qarigandan keyingina biroz kamayadi. Bir yashar go‘dakning ko‘krak aylanasi 49 sm ga teng. 25-26 yoshdagi yigitlarda ko'krak o'lchami «marra»siga yetadi va o'zgarmaydi. Erkaklar 40 yoshlarda jadal semira boshlaydi, shu sababdan ko‘krak aylanasi oMchami ortadi. Faqat 60 yoshdagina ko'krak aylanasi o'lchami kamayadi.

Katta yoshdagi kishilar vaznining 40 kg dan kam yoki 99 kg dan ziyod bo'lishi patologik kasallik hisoblanadi. O'sish davrida tananing vazni ortaveradi; 25-40 yoshlarda vazn barqarorlashadi. 40 dan 55 yoshgacha tana vazni har besh yilda o‘rta hisobida 1,0 -1,5 kg ga ortadi. Jussa (tana tuzilishi) muayyan belgilar majmuiga bog'liq bo'lib, kishining qaddi-qom atini ifodalaydi. V.V. Bunak erkaklarning gavda tuzilishi, ya'ni jussasini yetti turga bo‘ladi; shulardan uchtasi asosiy hisoblanadi: ko‘krakdor (ko‘ksi baland) tur; muskullari rivojlangan va qorindor tur. Ko‘krakdor turdagi erkaklar unchalik semizmas, muskullari ozgina rivojlangan, ko'krak qafasi yassi, qorin tortilgan, bukchaygan bo‘ladi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Tayanch nuqtasi va muvozanat to‘g‘risida so`zlab bering.

2. Odamning harakat holatini izohlang.

3. Inson skeleti to‘g‘risida madumot bering. Uning tasvirini uslubiy bosqichlarda chizish usullarini so`zlab, amaliy koTsating.

4. Qalamchizgi va xomaki rasm nima? Ular to‘g‘risida madumot bering.

5. «Shaklning konstruktiv asosi», deganda nimani tushunasiz?

6. Odamning plastik anatomiyasi, deganda nimani tushunasiz?

7. Psixologik portret nima? Mimika muskullari to‘g‘risida madumot bering.

8. Katta shakl nima?

9. Inson qomatini tasvirlashda analiz va sintez yodi bilan tasvir bajarish, deganda nimani tushunasiz?

Foydalangan adaboyotlar:

1. B. Boymetov, Qalamtasvir. Darslik “Musiqa” nashriyoti -2006.

2. Халилов Р, Рисунок, Издательство «Навруз» Т., -2013.

3. B.Tojiyev, Maxkamova “Qalamtasvir” TDPU-2015 yil

4. B.Tojiyev, X.Sultonov “Qalamtasvir” TDPU-2009

5. P.Thomas, A.Taylor, Drawing, London-2011.

6. B.Boymetov «Qalamtasvir» Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o’quv qo’llanma. Toshkent, “Iqtisod-Moliya”-2010.

7. B.Barber “Full course of the drawing”, Barselona-2014.

8. N.Tolipov,Sh.Dilshodbekova. “Tasviriy san’atdan izohli lug’at” TDPU-2014.

9. Х.Хариссон, “Энцклопедия. Техник рисунка” Москва-2005.

10. М.Кирцер, “Рисунок и живопись” Москва-2003.

11. Н.Ли , Основы учебного академического рисунка. Москва-2003

12. Ivanitskiy M.Yu. Inson anatomiyasi: Jismoniy madaniyat oliy maktablari uchun darslik / M Terra - Sport: Olympia RKE88, 2003. - 624p.

13. Zaxarov E.N., Karasev A.V., Safonov A.A. Jismoniy tarbiya entsiklopediyasi (Jismoniy fazilatlarni rivojlantirishning uslubiy asoslari) / Ed. A.V. Karasev. M.: Leptos, 1994.368 b.

MUSTAQIL TA’LIM MASHG’ULOTLARI

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SAN`ATSHUNOSLIK FAKULTETI

AMALIY SAN'AT VA RANGTASVIR KAFEDRASI

3-kurs, ASK-AU-21-gurux talabalari uchun

CHIZMATASVIR

fanidan

mustaqil ishlarni bajarish bo`yicha

USLUBIY KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

NAMANGAN – 2023

Mazkur mustaqil ish uchun uslubiy ko`rsatma va tavsiyalar oliy vao`rta maxsus ta’lim vazirligining 2009-yil 14-avgustdagi 286-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan “talaba mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo`yicha” yo`riqnoma hamda namdu ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi bo`yicha” yo`riqnoma asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: **A.Amanullayev**

Taqrizchi: **B.Ruzinov**

Ushbu mustaqil ish uchun uslubiy ko`rsatma va tavsiyalar Amaliy san’at va rangtasvir kafedrasining 2023 yil 28 -iyundagi 11-son yig’ilishi qarori bilan tasdiqlangan.

© Namangan davlat universiteti

1.Mustaqil ta'limning tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqili shi o`zbekiston respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining "talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to`g`risida"gi 2009 yil 14 avgustdagi 286-sonlibuyrug`i va "talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo`yicha yo`riqnoma" asosida tashkil etiladi.

Talaba mustaqil ishi (tmi) – muayyan fandan o`quv dasturida belgilangan bilim, ko`nikma va malakaning ma`lum bir qismini talaba tomonidan fan o`qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o`zlashtirilishiga yo`naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o`quv qo`llanmalar bo`yicha fan boblari va mavzularini o`rganish;
- tarqatma materiallar bo`yicha ma'ruza qismini o`zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo`yicha fan bo`limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- mavzuga oid karta-sxemalar va turli chizmalar tayyorlash;
- talabaning o`quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo`lgan fan bo`limlari va mavzularni chuqur o`rganish;
- faol va muammoli o`qitish uslubidan foydalaniladigan o`quv mashg'ulotlari

2. Mustaqil ishlarni nazorat qilish bo`yicha topshiriqlarni qabul qilish shakllari

Mustaqil ishlarni nazorat qilish bo`yicha topshiriqlarni quyidagi shakllarda qabul qilish tavsiya etiladi.

- Mavzu asosida qoralamalar
- Eskizlarni yig'ish yakuniy qismi
- slaydlar
- tarqatma materiallar
- mavzuni tahlil qilish

Talabalarni mustaqil ishlarini baholash har bir mustaqil ish mavzusini yakunlab topshirilgandan keyin amalga oshiriladi. Mustaqil ta'lim jarayonida ajratilgan topshiriqlarni talaba Universitet, fakultet' kutubxonalari yoki internet tarmog'laridan topib tayyorlaydi va qisqacha mazmunini qayd etib boradi hamda ko`rsatilgan shakllarda topshiradi. Bunda talaba har bir mavzu bo`yicha ishni bajarib, o`qituvchiga ko`rsatgan mustaqil ishi uchun ball oladi. To`planadigan ballar reyting nazorati turlariga (oraliq va joriy nazorat) qo`shiladi.

Talabaning har bir mustaqil ishini baholashda quyidagi me`zonlarga amal qilish mumkin.

- Mavzuning yoritilishi:
- Kutubxona va internet ma'lumotlaridan foydalanganligi-
- Ishni tushuntirishda talabaning nutqi
- Ishga ilmiy jihatdan yondoshganligi
- Imloviy va uslubiy xatolar
- Savollarga og'zaki javob:
- Berilgan barcha savollarga javob berish
- Qisman xatoga yo`l qo`yish
- Qisman to`g'ri javob berish
-

TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING SHAKLI VA HAJMINI BELGILASHDA QUYIDAGI JIHATLAR E`TIBORGA OLINISHI LOZIM:

- O`qish bosqichi;
- Muayyan fanning o`ziga xos xususiyati va o`zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- Talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);
- Fanning axborot manbalari bilan ta`minlanganlik darajasi;
- Talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

TALABA MUSTAQIL ISHINING VAZIFALARI QUYIDAGILARDAN IBORAT:

- Yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o`zlashtirish ko`nikmalariga ega bo`lish;
- Kerakli ma`lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- Axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- An`anaviy o`quv va ilmiy adabiyotlar, me`yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- Elektron o`quv adabiyotlari va ma`lumotlar banki bilan ishlash;
- Internet tarmog`idan maqsadli foydalanish;
- Berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;
- Ma`lumotlar bazasini belgilash;
- Topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- Ishlab chiqilgan loyiha yoki g`oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish;
- darslik va o`quv qo`llanmalarning (ularning to`la ta`minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o`rganish. Tarqatma materiallar bo`yicha Ma`ruza qismlarini o`zlashtirish. O`qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizmlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash;
- fandan nazariy va amaliy mashg`ulotlar o`tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo`naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o`rgatish, mashqlar bajarish.
- Fanga oid masalalarni, materiallarni tahlil qilish, mantiqiy mulohazalar ustida ishlash.
- Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog`liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o`rganish.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestrdan-semestrga ko`nikmalar hosil bo`lishiga muvofiq ravishda o`zgarib, oshib boradi. Fanning ayrim mavzularini o`quv adabiyotlari yordamida mustaqil o`zlashtirish, o`quv manbalari bilan ishlash;

- Amaliy mashg`ulotlarga tayyorgarlik ko`rib kelish;
- Muayyan mavzu bo`yicha referat tayyorlash;
- Rasm chizish;
- Amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- Ilmiy maqola, tezis va ma`ruzalar tayyorlash;
- Uy vazifalarini bajarish va boshqalar.

MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARINI MUVAFFAQIYATLI YAKUNLASHLARI UCHUN QO`YILADIGAN TALABLAR:

- Maqsadning (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o`zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirish) aniq asoslanishi;
- Vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;
- Topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan talabalarning etarli darajada xabardor bo`lishi;
- Maslahat va boshqa yordam turlarining to`g`ri belgilanishi;
- Hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;
- Nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish.

Talabalar bilimini baholashda reyting tizimini qo`llash maqsadlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ish soatlari, ma`ruza va amaliy mashg`ulotlar bo`yicha taqsimlanadi va mos ravishda baholanadi. Talabalar mustaqil ishlarini baholash ajratilgan soatlarga mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

Ma`ruza soatlari uchun ajratilgan mustaqil ta`lim soatlarida ma`ruzada berilgan o`quv materiallarini chuqurlashtirilgan tarzda mustaqil o`rganish va konspekt yozish nazarda tutiladi.

Amaliy san’at (badiiy kulolchilik) yo‘nalishi talabalari uchun Mustaqil ishi mavzulari:
3-kurs; Chizmatasvir fani

III. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARINI TAQSIMLANISHI			
№	**Mavzu nomi**	**TMI shakli**	**Soati**
	3-kurs, V- Semestr		
1.	Kompozitsion eskizini tuzish mashqi	O’tilgan dars mashg’ulotlari asosida ijodiy ishlar bajarish A2 formatdav 2 dona. *(qalam, sous, sanginada bajarish)*	**14**
2.	Chizmatasvirda asar qaxramonlari qiyofalariga chizgilar yaratish mashqlari.	O’tilgan dars mashg’ulotlari asosida ijodiy ishlar bajarish A2 formatdav 2 dona. *(qalam, sous, sanginada bajarish)*	**14**
3.	David xaykali yuz qismlaridan tuzilgan natyurmort (qora qog’oz, past	O’tilgan dars mashg’ulotlari asosida ijodiy ishlar bajarish A2 formatdav 2 dona. *(qalam, sous, sanginada bajarish)*	**14**
4.	Bosh suyagi 3 xil ko`rinishda (suniy yorig’liq yordamida)	O’tilgan dars mashg’ulotlari asosida ijodiy ishlar bajarish A2 formatdav 2 dona. *(qalam, sous, sanginada bajarish)*	**16**
5.	Qirqma bosh (obrubovka)	O’tilgan dars mashg’ulotlari asosida ijodiy ishlar bajarish A2 formatdav 2 dona. *(qalam, sous, sanginada bajarish)*	**16**
6.	Antik davr haykali (Sakrat, Venera). (suniy yorig’liq yordamida)	O’tilgan dars mashg’ulotlari asosida ijodiy ishlar bajarish A2 formatdav 2 dona. *(qalam, sous, sanginada bajarish)*	**16**
	Jami		**90**
	3-kurs, VI-semetr		
1.	Qoralamalarni yaratish.	O’tilgan dars mashg’ulotlari asosida ijodiy ishlar bajarish A2 formatdav 2 dona. *(qalam, sous, sanginada bajarish)*	**18**
2.	Odamlar guruxi qoralamasi.	O’tilgan dars mashg’ulotlari asosida ijodiy ishlar bajarish A2 formatdav 2 dona. *(qalam, sous, sanginada bajarish)*	**18**
3.	Dar xil ashyolarda portret ishlash.	O’tilgan dars mashg’ulotlari asosida ijodiy ishlar bajarish A2 formatdav 2 dona. *(qalam, sous, sanginada bajarish)*	**18**
4.	Chizmatasvirda acap kaxramonlari kiyofalariga chizGtllar yaratpsh mashklari.	O’tilgan dars mashg’ulotlari asosida ijodiy ishlar bajarish A2 formatdav 2 dona. *(qalam, sous, sanginada bajarish)*	**18**
5.	Yakka daraxt va daraxtlar guruxi koralamasi.	O’tilgan dars mashg’ulotlari asosida ijodiy ishlar bajarish A2 formatdav 2 dona. *(qalam, sous, sanginada bajarish)*	**18**
	Jami		**90**
	3-kurs bo’yicha jami		**180**

Mustaqil ishlarni bajarish uchun o`quv-uslubiy adabiyotlar ro`yxati.

№	Muallif	Adabiyotning nomi	ARMdagi soni	Nashr yili
Asosiy adabiyotlar				
1.	Boymetov B.	Qalamtasvir o`qitishning ilmiy asoslari. T., 1995.	5	T-2008
2.	Boymetov B.	Qalamtasvir asoslari. T., 2000	5	T-2018
3.	Boymetov B.	Portret qalamtasvir. T., 2001	5	T-2014
4.	Rostovtsev N.N.	Akademicheskiy risunok. M., 1981	1	T-2006
5.	Safaraliev S.	Uchebno`y risunok v Akademii xudojestv M., 1990.	1	T-2014
6.	Nabiyev M.	Rasm chizishni o`rganish metodikasi. T., 1998	5	
7.	B.Tojiyev N. Isaxojayeva	Qalamtasvir rangtasvir va kompozitsiya asoslari	-	T-2011
8.	B.Boymetov, O'.Nurtayev	Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish	-	T-2007
9.	A.Sulaymonov	Tasviriy san’atda oqim va yo’nalishlar	4	T-2019
10.	Bulatov S	Rangshunoslik	2	T-2016
11.	Xasanov R	Amaliy bezak san’ati mashgulotlari metodikasi (ukuv kullanma)	1	T-2007
12.	Xasanov R	Amaliy bezak san’ati mashgulotlari metodikasi (ukuv kullanma)	1	T-2007
13.	H.Sultanov N.Mansurov	Chizmatasvir (O`quv qo`llanma)	-	T-2014
14.	B.Boymetov	Haykaltaroshlik va plastik anatomiya	-	T-2007
15.	Botir Boymetov	Qalamtasvir (O`quv qo`llanma)	-	T-2007
16.	A. Kalonov	Qoralama va xomaki chizgilar	-	T-2013
17.	M.Ketti Toshmurodov_	Chizmatasvir	-	T-2012
18.	G Artiqov	Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi	-	T-2007
19.	R. Xudayberganov	Mahobatli rangtasvir texnika va texnologiyasi	-	T-2015
20.	А. Лаптев	Рисунок пером	-	M-2000
1.	**www.rsl.ru;**			
2.	**www.person.ru;**			
3.	**www.mf.uz;**			
4.	**www.tdiu.uz;**			

GLOSSARIYA

Glossariya

№	O’zbekcha	Inglizcha	Izoh
1.	**Assimetriya**	Asymmetry	qar. Simmetriya
2.	**Blik**	Glare	(nemis. - nigoh) soya va yorug`lik elementi. Buyumdagi eng yorug` nur tushgan, asosan jilolanib va yaltirab turgan qismi. Odatda bu dog’ yorqinligiga ko’rabuyumning umumiy ko’rinishidan yaqqol farqlanib turadi.
3.	**Vatman**	Whatman	(angl whatman) – qalin qattiq qog`oz. Juda sifatli, yuzasi ga`dir - budur, mustahkam va yaxshi moylangan qog`oz. Qog’oz nomi ingliz qog’oz korxonasi egasi J.Vatman sharafiga qo’yilgan.
4.	**Uyg`onish davri**	Renaissance	(Renesans) XIV – XVIasrlarda Yevropa madaniyatida san`at davri. Oqsuyaklarga hos fe’l-atvor, gumanistik dunyoqarash, tarixga murojat. O’rta asrlardan so’ng uningdiniy yo`nalishi va madaniy ko`rinishi - go`zallik va uyg’unlikka intilish, hissiyotlarning boyligi va dunyoning turli-tumanliklariga, inson qiyofasiga tabiat toji deb qaralgan.
5.	**Grafika**	Graphics	(grek.graphike, grapho yozaman, chizaman) 1. Tasviriy san’at turi bo’lib, asosiy tasviriy vositalar: qog’ozga tushirilgan chiziqlar, shtrixlar, dog’ va nuqtalar bilan rasm chiziladi. Grafika ikki turga bo’linadi: tasviriy (rasm), muallif

			tomonidan chizilgan rasm va nashr qilingan: o’yma naqsh, toshbosma. 2. Asosi shunday rasmdan iborat bo’lgan nashr qilingan badiiy tasvirlar (o’yma naqsh, toshbosma). Ranglar grafikada yordamchi vazifasini bajaradi.
6.	**Grafit**	Graphite	(grek.grapho – yozaman). 1. To’q kulrang yoki qora rangdagi mineral, uglerodning tabiiy turi. Qalam o’zagini tayyorlashda qo’llaniladi. Grafit matodan yoki boshqa materialdan qilingan qog’ozga tushganda kumush iz qoldiradi. Grafit qalam XVIII asr oxirlaridan qo’llanila boshladi, ilk marotaba u qattiq bo’lishi uchun grafit va loyni kuydirish yo’li bilan tayyorlandi. 2. Toshqalam, o’zak qalamning ichida joylashgan.
7.	**Yakunlanish**	Completeness	asar ustidagi ishning shunday bosqichiki, unda
8.	**.**		ijodiy fikrlarning eng yuqori bisqichiga erishiladi yoki, qisqa ma’noda, belgilangan tasviriy vazifa bajariladi
9.	**Tasviriy san’at**	Art.	badiiy ijodning bir turi, badiiy obrazlarni tekislik va makonda namoyon etadi. Bu tushunchalar tasviriy san’at, grafika va me’morchilik, shuningdek arxitekturaning har xil turlarini birlashtiradi.
10.	**Tasvir**	Item image	belgilangan obyektni tasvirlovchi buyum, obraz, rasm. Tasviriy san’atda yaratilayotgan asarlar (rasmda,

			kompozitsiyada va b.) haqiqiy dunyoning subyektiv tasviri hisoblanadi.
11.	**Rasm**	Illustration	(lot.illustrratio – yoritish, tasvir), matnni to'ldiruvchi (rasm, gravyuralar, foto suratlar, xarita, chizmalar va b.) tasvir. Adabiyot va ilmiy asarlarning tasviriy yoritilishi.
12.	**San'at**	Art	1. Ijodiy tasvir, butun borliqni badiiy obrazlarda yetkazib berish. San'at – jamoat fikri shakllaridan biri va ham bir insonning, ham butun odamzod madaniyatining bir qismi, barcha avlodlarning ijodiy faoliyatining turli natijalari. Tasviriy san'at, dekorativ san'at. 2. Mohirlik, ustalik, ishni chuquur bilish. 3. Shunday mohirlik talab qiluvchi ish
13.	**Qalam**	Pencil	chizish, bo'yash va chizmachilikka mo'ljallangan buyum yoki yozuv quroli, ichi loyga o'xshash grafitli moddadan iborat bo'lgan yog'och tayoq, ichi ko'mir, qo'rg'oshin, grafit yoki quruq presslangan bo'yoqlardan (rangli qalamlar) iborat bo'lishi mumkin, odatda ustki qismi yog'och yoki metaldan bo'ladi.
14.	**Rasm**	Picture	tugallangan (eskiz va etyuddan farqli) va mustaqil badiiy ma'noga ega tasviriy san'at asari. Freska va kitob miniaturasidan farqli rasm belgilangan interyer yoki belgilangan bezak tizimi bilan bog'lanishi shart emas.
15.	**Karton**	Cardboard	(fran.carton, ital.cartone, carta – qog'oz). 1. Qalin, qattiq va juda pishiq qog'oz,

			oddiy qog’ozdan qalin. Qog’ozga tushirilgan rasm, eskiz, keyin u o’zakka tushiriladi (mato, devor, yog’och yoki metal tekislik).
16.	**Konstruksiya**	Construction	(lot.) – tasviriy san’atda: mohiyat, natura va rasmda har qanday shakl yaratishning o’ziga
17.			hos hususiyatlari, qismlarni bir butunga bog’lash va ular munosabatini ko’rsatadi.
18.	**Kontrast**	Contrast	(fran. – keskin farq, qarama-qarshilik) – tasviriy san’atda keng tarqalgan badiiy uslub, qarama-qarshi sifatlarni taqqoslash va ularni kuchaytirishga qaratilgan.
19.	**Chiziq**	Line	(lot. Linea – zig’ir ip). Tasviriy san’at va rassomchilikda ifodali tasviriy vosita. Chiziq, grafik yoki bo’yoq vositalari bilan tasviriy yuzaga chizish orqali yuzaga keladi. Chiziq doim qalinlik, farqlilik va uslubga ega bo’ladi. Tasviriy san’atda chegara, biror-bir yuza va o’rab turuvchi muhit konturi hisoblanadi
20.	**Molbert**	Easel	(nem.malbrett – rassomlik san’ati uchun tokcha) – rassomlik san’ati uchun taxta yoki metal uskuna, turli balandlikda va turli nishablikda mato, karton yoki taxta bilan romlar qotiriladi.
21.	**Mulyaj**	Dummy	natura yoki biron-bir haykaltaroshlik asaridan olingan aniq nusxa. Mum bilan bo’yalgan (yelim – gips va bo’r aralashtirilgan massa) meva, sabzavot va

			boshqa predmet mulyajlari ba’zida yordamchi ko’rish vositalari sifatida qo’llaniladi.
22.	**Xomaki reja**	Sketch	rassom tomonidan tez bajarilgan, katta bo’lmagan o’lchamdagi rassomlik, grafika va haykaltaroshlik san’ati asari.
23.	**Natura**	Nature	tasviriy san’atda rassom chizayotganda kuzatadigan butun borliq obyektlari (predmet, odam, manzara). Naturani va uning ta’rifini tanlashda rassom dunyoni, o’z ijodiy vazifasini sezadi.
24.	**Natyurmort**	Still	san’at janri, insonni o’rab turgan muhitni tasvirlaydi, qoidaga ko’ra, kompozitsion tashkil etilgan (o’rnatilgan). Jonsiz narsalar, jonli tabiat obyektlari, buyumga qaratilgan. Ramziy mazmunga va ijtimoiy o’xshashlikka ega.
25.	**Asos**	Base	grunt yoki bo’yoq qatlami surtiladigan mato, taxta, faner, karton, qog’oz, shoyi va boshqalar.
26.	**Asl**	Original	(lot. – asl nusxa) – 1. Tasviriy san’atda: rassomning ijodiy ishi; 2. Nusxasi olingan har qanday san’at asari.
27.	**Perspektiva**	Perspective	(fran.perspective, lot.perspicio – aniq ko’raman), tekislikdagi katta tanalar tasviri, ularning o’z joy tuzilishi va joylashgan o’rni, shuningdek kuzatuvchidan uzoqligi yetkazib beriladi.

28.	**Mutanosiblik**	Plasticity	har xil san’at asarlarida: o’ziga hos go’zallik, butunlik, noziklik va ta’sirchanlik, ranglarga boyligi, shuningdek, kompozitsiyada chiziqlar, massa va shakllar mutanosibligi.
29.	**Yarim soya**	The penumbra	yorug’lik va soya elementi; yorug’lik va chuqur soya orasidagi joyni egallovchi, predmet ustidagi yorug’lik va soya siyqallashishi.
30.	**Nisbat**	Ratio	bo’laklar o’lchami, bo’laklarning bir biriga va bir butunning o’lchamlariga mosligi. Tasviriy san’atda nisbatning ko’plab turlari mavjud. Rassom nisbatning barcha turlari bilan ishlaydi. Ular nafaqat shakl va predmetlarning tuzilishini, balki asarning kompozitsion tuzilishini ham belgilaydi.

ILOVALAR

ISHCHI O’QUV DASTURI

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«Tasdiqlayman»
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
_____ D.Xolmatov
«_____» _____ 2023 yil

CHIZMATASVIR

FANINING
O'QUV DASTURI

2023/2024 o'quv yili kunduzgi ta'lim shakli, 3-kurslari uchun

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar
**Ta`lim sohasi:** 210 000 - San`at
Ta`lim yo`nalishi: 60210800-Amaliy san`at: (badiiy kulolchilik)

Namangan – 2023

Fan/modul kodi ChTas1738	O‘quv yili 2023/2024	Semestr 5-6	ECTS-Kreditlar 6+6=12
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 6
Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Chizmatsvir	180	180	360

I.FANNING MAZMUNI

Fanni o‘qitishdan maqsad - talabalarning Chizmatasvir fani to‘g‘risidagi ilmiy, nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirish.

Fanni vazifasi - “Chizmatasvir” fani o‘quv jarayoni mobaynidagi o‘quv mashg‘ulotlarida talabalar antik davrda yaratilgan portretlarning gipsdan nushalari va inson qiyofasining turli ko‘rinishlari - portret, inson jussasining libosli va libossiz yarim qomati, libosli va libossiz to‘liq jussa va ikki jussadan tashkil topgan inter'erdagi guruxli portret hamda ikki jussadan tashkil topgan libossiz qomat o‘quv vazifalarini bajarish jarayonida kasb mahorati egallashlari talab etiladi, ular bu jarayonda rangtasvir ustasi sifatida shakllanadilar. Talabalar bu jarayonda turli sharoit va muxitda grafik vositalarda tasvir yaratish mobaynida tasvir qonun qoidalari, manzara va turli ob'ektlarni tasvirlash nazariyasi, qiyofa hususiyatlari, inson anatomiyasi plastik sifatlari, tuzilishi hamda ularni ma'lum tabiiy yoki sun'iy yorug‘lik man'bai bilan yoritilgan sharoitda tasvirlashni o‘rgashishdan iborat.

II. ASOSIY AMAlIY QISM (AMALIY MASHG‘ULOTLARI)

1-Mavzu. Odam portretini (naturadan) ishlash.

O’xshatishga intilish och-tuk tuslarni farkIni va kiyofa tusini xis yetish xamda anatomik taxlil etish talab qilinadi. Qo’yilmada tirik odam boshi bulganligi uchun fondagi mato tusini shunga mos ravishda tanlashimiz lozim buladi. Xap xil chizish vositalaridan foydalanilada ya’ni coyc, sangina, ugolь, retush, italiyancha kalam 50x70.

2-Mavzu. Portret odam boshi, yelkalari bilan ishlash.

Portret odam boshi, yelkalari bilan joylashtirishga axamiyat berish.

Tirik odamni yelkalari bilan tasvirlash. Maqsad boshini buyin orkali yelkaga boglanishini chukurrok urganish va anatomik taxlil kilish. Yengil tuslar orkali obrazni va uxshashlik darajasini tasvirlash Kogoz, rp. kalam va coyc retush 50x70.

3-Mavzu. Tirik odam yarim qomati, qo’llari bilan chiziqli, konstruktiv ko’rinishini ishlash.

Tirik odam yarim qomati, qo’llari bilan chiziqli, konstruktiv qurish. Yengil tuslar orqali ishlov berish va o’xshashlikka intilish. Portret bilan qo’lni bir biriga munosabatini tushuntirib o’tish va shu jixatga talabani axamiyatini jalb qilish. Inson tanasi bo’laklarini bir biri bilan bog’lanishini o’rgatish anatomik taxlil qilish. Xar xil chizish vositalaridan foydalanilada ya’ni sous, sangina, ugol, retush, italiyancha kalam 50x70.

4-Mavzu. Mavzuli qo'yilma. Libosli ayol qomatini ishlash.

Yuqoridagi mavzulardan foydalanilgan xolda intererda o'tirgan yoki turgan odam qomatidan foydalanilib pastanovka qo'yiladi. Maqsad pastanovka mazmuni bo'lgan xolat yo'nalishini aniqlab mavzuni yoritadigan predmetlarga e'tibor bergan xolda joylashtiriladi. Xar xil chizish vositalaridan foydalanilada ya'ni sous, sangina, ugol, retush, italiyancha qalam 50x70.

5-Mavzu. Portret odam boshi, yelkalari bilan ishlash.

Mavzuga oid intererda o'tirgan yoki turgan odam qomatidan foydalanilib pastanovka qo'yiladi. Maqsad pastanovka mazmuni bo'lgan xolat yo'nalishini aniqlab mavzuni yoritadigan predmetlarga e'tibor bergan xolda joylashtiriladi. Xolatni anatomik jixatlariga e'tibor berib interyer ichida proportsiyani to'g'ri topilishi tayanch nuqtasiga e'tibor berib kuzatib boriladi. Portret obraz va qo'l xarakatlarini turli yo'nalishini tekshirib turish ko'zda tutilishi lozim. Xar xil chizish vositalaridan foydalanilada ya'ni sous, sangina, ugol, retush, italiyancha qalam 50x70.

6-Mavzu. Libosli ayol qomati interyerda (o'tirgan xolatda).

Maqsad: xolatni interyer bilan bog'lash va Xolatni proportsiyalarini aniqlash tayanch nuqtasini belgilash, anatomik jixatlarga axamiyat berish, yengil tuslar orqali ishni yakunlash. Uslubiy fonda va tabiiy yorug'likda ishlanadi. Qog'oz, qalam va sous, retush 50x70

II.2. AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARINI TAQSIMLANISHI.

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	soati
	3-kurs, V-semestr	
I.	**Odam portretini (naturadan) ishlash**	**30**
1.	*Qog`ozga to`gri joylashtirish*	2
2.	*O`zaro nisbatlarini topish*	2
3.	*Xarakterini o`rganish*	2
4.	*Konstruktiv tuzilishini topish*	4
5.	*Yorug'soya nisbatlarini topish*	2
6.	*Bosqichlar asosida ishlash*	2
7.	*Bosqichlar bilan qalamda ishlash*	4
8.	*Kolorit yechimini ifodalash.*	2
9.	*Konstruktiv nisbatlar topish*	4
10.	*Umumlashtirish*	2
11.	*Yaxlitlash va tugallash*	4
II.	**Portret odam boshi, yelkalari bilan ishlash**	**30**
1.	*Qog`ozga to`gri joylashtirish*	2
2.	*O`zaro nisbatlarini topish*	2
3.	*Xarakterini o`rganish*	2
4.	*Konstruktiv tuzilishini topish*	4
5.	*Yorug'soya nisbatlarini topish*	2
6.	*Bosqichlar asosida ishlash*	2

7.	*Bosqichlar bilan qalamda ishlash*	4
8.	*Kolorit yechimini ifodalash.*	2
9.	*Konstruktiv nisbatlar topish*	4
10.	*Umumlashtirish*	2
11.	*Yaxlitlash va tugallash*	4
III.	**Tirik odam yarim qomati, qo'llari bilan chiziqli, konstruktiv ko'rinishini ishlash**	**30**
1.	*Qog`ozga to`gri joylashtirish*	2
2.	*O`zaro nisbatlarini topish*	2
3.	*Xarakterini o`rganish*	2
4.	*Konstruktiv tuzilishini topish*	4
5.	*Yorug' soya nisbatlarini topish*	2
6.	*Bosqichlar asosida ishlash*	2
7.	*Bosqichlar bilan qalamda ishlash*	4
8.	*Kolorit yechimini ifodalash.*	2
9.	*Konstruktiv nisbatlar topish*	4
10.	*Umumlashtirish*	2
11.	*Yaxlitlash va tugallash*	4
	Jami	**90**
	3-kurs, VI-semestr	
I.	**Mavzuli qo'yilma. Libosli ayol qomatini ishlash.**	**30**
1.	*Qog`ozga to`gri joylashtirish*	2
2.	*O`zaro nisbatlarini topish*	2
3.	*Xarakterini o`rganish*	2
4.	*Konstruktiv tuzilishini topish*	4
5.	*Yorug' soya nisbatlarini topish*	2
6.	*Bosqichlar asosida ishlash*	2
7.	*Bosqichlar bilan qalamda ishlash*	4
8.	*Kolorit yechimini ifodalash.*	2
9.	*Konstruktiv nisbatlar topish*	4
10.	*Umumlashtirish*	2
11.	*Yaxlitlash va tugallash*	4
II.	**Portret odam boshi, yelkalari bilan ishlash.**	**30**
1.	*Qog`ozga to`gri joylashtirish*	2
2.	*O`zaro nisbatlarini topish*	2
3.	*Xarakterini o`rganish*	2
4.	*Konstruktiv tuzilishini topish*	4
5.	*Yorug' soya nisbatlarini topish*	2
6.	*Bosqichlar asosida ishlash*	2
7.	*Bosqichlar bilan qalamda ishlash*	4
8.	*Kolorit yechimini ifodalash.*	2
9.	*Konstruktiv nisbatlar topish*	4

10.	*Umumlashtirish*	2
11.	*Yaxlitlash va tugallash*	4
III.	**Libosli ayol qomati interyerda (o'tirgan xolatda).**	**30**
1.	*Qog`ozga to`gri joylashtirish*	2
2.	*O`zaro nisbatlarini topish*	2
3.	*Xarakterini o`rganish*	2
4.	*Konstruktiv tuzilishini topish*	4
5.	*Yorug' soya nisbatlarini topish*	2
6.	*Bosqichlar asosida ishlash*	2
7.	*Bosqichlar bilan qalamda ishlash*	4
8.	*Kolorit yechimini ifodalash.*	2
9.	*Konstruktiv nisbatlar topish*	4
10.	*Umumlashtirish*	2
11.	*Yaxlitlash va tugallash*	4
	Jami	**90**
	3-kurs bo'yicha jami	**180**

Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem. guruhga bir o`qituvchi tomonidan o`tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o`tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo`llanilishi maqsadga muvofiq.

III. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARINI TAQSIMLANISHI			
№	**Mavzu nomi**	**TMI shakli**	**Soati**
	3-kurs, V- Semestr		
1.	Kompozitsion eskizini tuzish mashqi	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida ijodiy ishlar bajarish A2 formatdav 2 dona. *(qalam, sous, sanginada bajarish)*	**14**
2.	Chizmatasvirda asar qaxramonlari qiyofalariga chizgilar yaratish mashqlari.	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida ijodiy ishlar bajarish A2 formatdav 2 dona. *(qalam, sous, sanginada bajarish)*	**14**
3.	David xaykali yuz qismlaridan tuzilgan natyurmort (qora qog'oz, past	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida ijodiy ishlar bajarish A2 formatdav 2 dona. *(qalam, sous, sanginada bajarish)*	**14**
4.	Bosh suyagi 3 xil ko`rinishda (suniy yorig'liq yordamida)	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida ijodiy ishlar bajarish A2 formatdav 2 dona. *(qalam, sous, sanginada bajarish)*	**16**
5.	Qirqma bosh (obrubovka)	O'tilgan dars mashg'ulotlari asosida ijodiy ishlar bajarish A2 formatdav 2 dona. *(qalam, sous, sanginada bajarish)*	**16**
